جدید

2025-yil 19-dekabr
№ 51 (103)
www.jadid.uz

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

@Jadidrasmiy @Jadidmediauz @Jadidrasmiy @Jadid_uz

ODAMLAR NIMA DEYDI?



“...Uyimning tomini qo‘shnimnikidan ko‘tarmasam, bojamdan o‘tkazib to‘y qilmasam, umradan kelib to‘rt qozon osh tarqatmasam, ota-onamning tug‘ilgan kunida artist chaqirib tun yarmida tabriklamasam, odamlar nima derkin, qabilidagi “o‘y”lar oxir-oqibat ma’naviy va moddiy halokatga yetaklaydi. Ayniqsa, to‘y-ma’rakalardagi dabdababozlik va isrofning negizida ham ana shu savol yotibdi...”

(8-sahifada o‘qing).

HAMKORLIK



C5+YAPONIYA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yaponiya Bosh vaziri Sanae Takaichining taklifiga binoan kunchiqar mamlakatga rasmiy tashrifi davom etmoqda. Mazkur tashrif O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash, ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirish va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashda muhim qadam bo‘lishi kutilmoqda.

O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi siyosiy muloqot yuqori darajadagi ishonchning mustahkamligi bilan ajralib turadi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yilda Yaponiyaga rasmiy tashrifi ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirishda muhim bosqich bo‘lgan, tashrif doirasida hamkorlik yo‘nalishlarini tizimli ravishda kengaytirish bo‘yicha qator bitimlar imzolangan edi.

Bugungi kunda ikki mamlakat parlamentlari, hukumat tuzilmalari va tashqi siyosat idoralari darajasida aloqalar yo‘lga qo‘yilgan.

Davlatlarimiz o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik mana shunday mustahkam siyosiy va institutsional asosda jadal rivojlanmoqda. Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi besh yil davomida O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi o‘zaro savdo-sotiq hajmi 54 foizga oshgani ham shundan dalolat beradi.

Yaponiya O‘zbekistonni Markaziy Osiyodagi muhim hamkor sifatida ko‘radi. Buning bir necha sabablari bor. Birinchidan, O‘zbekistonning geosiyosiy o‘rni va barqarorligi alohida o‘rin tutadi. Markaziy Osiyoning yuragida joylashgan O‘zbekiston mintaqaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Afg‘oniston bilan chegaradosh bo‘lgani va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan siyosati Yaponiya uchun strategik jihatdan ahamiyatlidir.

Ikkinchidan, iqtisodiy salohiyat va tabiiy resurslar Tokioni qiziqtiradi. O‘zbekiston tabiiy gaz, oltin, mis, uran kabi boy resurslarga ega. Yaponiya sanoati rivojlangan va energiyaga muhtoj davlat sifatida, bu resurslardan manfaatdor. Shuningdek, O‘zbekistonning o‘sib borayotgan iqtisodiyoti Yaponiya uchun yangi bozor va hamkorlik imkoniyatlarini yaratadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston hududida Yaponiya kapitali ishtirokida energetika, mashinasozlik, kimyo sanoati, logistika va boshqa tarmoqlarni qamrab olgan 100 dan ortiq korxona muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgani fikrimiz dalilidir. Ular orasida “Mitsubishi Corporation”, “Marubeni”, “Sojitz”, “Toyota Tsusho”, “Hitachi” kabi yirik transmilliy korporatsiyalar mavjud.

Uchinchidan, islohotlar va investitsiya muhiti Yaponiyaning qiziqishiga sabab bo‘lmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, iqtisodiyotni liberallashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash siyosati yapon investorlari uchun qulay sharoit yaratmoqda.

To‘rtinchidan, ikki mamlakat o‘rtasidagi tarixiy va madaniy aloqalar ham muhim o‘rin tutadi. Yaponiya O‘zbekistonning boy madaniyatiga qiziqish bildiradi va bu sohada hamkorlikni kengaytirish istagida.

Yaponiya – O‘zbekiston uchun zarur hamkor. U dunyoda eng ilg‘or texnologiya va innovatsion yutuqlarga ega mamlakatlardan biri. Uning sanoat, qishloq xo‘jaligi, energetika, transport va boshqa sohalardagi yuqori texnologik ishlab chiqarish salohiyati, ilmiy-texnikaviy hamkorligi va investitsiyalari mamlakatimizning zamonaviy sanoat bazasini shakllantirishda yordam beradi.

Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) mamlakatimizda energetika va infratuzilmani rivojlantirish, qishloq va suv xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash, ta’lim va boshqa sohalarda umumiy qiymati 5,5 milliard AQSH dollaridan ortiq bo‘lgan 50 ga yaqin yirik loyihalarni amalga oshirmoqda. Yaponiya xalqaro hamkorlik banki (JBIC) bilan qo‘shma loyihalar portfeli esa qariyb 4 milliard AQSH dollarini tashkil etadi.

Sanoat sohasi o‘zaro hamkorligimizning yana bir ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qolmoqda. So‘nggi yillarda yapon kompaniyalarining O‘zbekistondagi yirik sanoat va energetika loyihalarida tobora kengayib borayotgan ishtiroki ilg‘or texnologiyalar transferini jadallashtirish, mamlakatning ishlab chiqarish bazasini kengaytirish hamda zamonaviy boshqaruv standartlarini joriy etishda sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa Yaponiyaning O‘zbekistondagi ortga qaytmas islohotlarni qat’iy qo‘llab-quvvatlayotganini namoyish etadi. Kunchiqar mamlakat O‘zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o‘tishi, davlat boshqaruvini takomillashtirish va institutsional islohotlarni amalga oshirish jarayonlariga hissa qo‘shmoqda.

O‘zbekiston va mintaqani Yaponiya bilan bog‘lovchi jihatlar ko‘p, albatta. Yaponiyaning ilg‘or texnologiyalari va sarmoyalari O‘zbekistonning iqtisodiy salohiyatini oshirishga, Yaponiyaning esa rivojlanayotgan bozorlarda o‘zining iqtisodiy mavqeyini mustahkamlashiga yordam beradi.

(Davomi 2-sahifada).

MUJDA

OLTIN AVLOD ODIMLARI



Sport va fan olimpiadalari ishtirokchilari go‘yo medallar borasida bellashayotganga o‘xshaydi so‘nggi yillarda. Aql va kuchni birlashtirgan shaxmatchilar vazmin yutuqlari bilan muvozanatni saqlab turganday. Hali Javohir Sindarov erishgan g‘alaba shukuhi tarqab ulgurmay turib, dekabrning o‘zida yana ikkita muhim taqdirlash marosimiga guvoh bo‘ldik.

(Davomi 2-sahifada).

VATAN MANZUMASI

YURT MANZARALARI

Shodmonqul SALOM

Marg‘ilonda, tong shivirida,
Yuragimga tegib o‘tdi kuz.
Potirladi ko‘ksimda qushlar –
Oqi – oppoq, qorasi – qunduz.

Tubigacha ko‘rinar suvlar,
Bog‘lar sog‘inch rangiga kirgan.
Ro‘mol uchin tishlar suluvlar
Yuzga hayo upasin urgan.

Hovlilardan anqiydi hayot,
Sarishtalar Kumush, Zebilar.
Engashmasang boshingga tegar
Usta bog‘bon ekkan behilar.

Soqolini yillar kuzagan,
Bomdod o‘qib qaytishar chollar.
Shirmoy nonday balqqanda quyosh
Qaymoq suzar aziz ayollar.

Bedanalar payrov qilgancha
Ayvonlarda qutlaydi tongni.
Sezdirmasdan tomirlar mehr,
Bezab borar insoniy ongni.

Paxtazorlar, kamalak bog‘lar,
Qadoqqo‘l kuz qilmoqda ijod.
Tiriklikning tomirlariga
Issiq qonday yugurar hayot.

Ipak to‘lib borar charxida,
Naqsh solar umringa tonglar.
Dovon orti – so‘lim vodiyda
Ana shunday boshlanar kunlar.

(Davomi 4-sahifada).

FAKT

- **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yaponiya Bosh vaziri Sanae Takaichining taklifiga binoan 18-dekabr kuni ushbu mamlakatga tashrif buyurdi. 20-dekabrgacha davom etadigan tashrif doirasida Prezidentimiz “Markaziy Osiyo – Yaponiya” formatidagi birinchi sammitda ham ishtirok etadi.**
- **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2027-yilgi futbol bo‘yicha U-20 Jahon chempionatiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori e’lon qilindi.**
- **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva Urgut tumaniga tashrif buyurib, O‘zbekiston–Tojikiston chegarasida savdo, logistika va tibbiyot markazlarini tashkil etish loyihasi bilan tanishdi.**
- **Senat 2026-yilgi davlat byudjetini ma’qulladi. Unga ko‘ra, davlat byudjeti xarajatlarining 55 foizi ijtimoiy sohaga yo‘naltirilishi ko‘zda tutilmoqda.**

ISLOHOT



HAL QILUVCHI OMIL

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning o‘qituvchi va murabbiylarga qarata aytilgan shunday samimiy so‘zlari bor: “Yurtimiz tarixidagi ikki buyuk Renessansni yaratgan ulug‘ mutafakkir va allomalarni ham o‘z vaqtida siz kabi o‘qituvchi va muallimlar tarbiyalab voyaga yetkazgan. Bu ezgu an’analarning davomchilari sifatida siz, azizlar ham bugun jonajon Vatanimizda barpo etilayotgan Uchinchi Renessans bunyodkorlarini kamol toptirishga munosib hissa qo‘shasizlar, deb ishonaman”.

(Davomi 3-sahifada).

“MILLATGA XIZMAT ILMSIZ BO‘LMAS...”



Atoqli ma’rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiyning 1899-yilda amalga oshirgan haj safari uning siyosiy tafakkuri o‘zgarishiga olib kelgan muhim bosqichlardan sanaladi. Safar chog‘ida u Istanbul va Qohira kabi musulmon dunyosining yirik ilmiy-madaniy markazlarida bo‘lib, u yerdagi ta’lim muassasalari – maktab va universitetlarning faoliyati bilan tanishadi, zamonaviy pedagogik faoliyatni yaqindan kuzatadi. Shu bilan birga, Turkistonga ilg‘or Yevropa va Sharq tajribasiga asoslangan yangi darsliklar va uslubiy qo‘llanmalarni olib keladi.

(Davomi 6-sahifada).

ABADIYAT ORALAB...

TOG‘LARNI QULASHDAN ASRAGAN ADIB

Chingiz Aytmatov salkam sakson yillik, mazmunan asrga tatigulik umrni yashab o‘tdi. Butun ijodi davomida nainki bugunning, ayni chog‘da ertaning, yaqin kelajakning ham muhim, boshqalar aytishga jur’at eta olmagan muammolarini o‘ziga xos jasorat bilan tadqiq etdi. Muxlislarini bu muammolar to‘g‘risida o‘ylashga, fikr qilishga, xulosa chiqarishga chorladi. Xalqning tilida va dilida turgan, pishib yetilgan, aytmasa bo‘lmaydigan muammolarni jamoatchilik muhokamasiga havola etdi. Uning har bir chiqishi aniq ijtimoiy pozitsiya, tiniq va o‘tkir nuqtayi nazar bilan ajralib turardi. U umrining oxirigacha o‘z so‘zini aytmatovchasiga dangal va oshkora aytib keldi.

Adibning betakror qissalaridagi voqealar asosan qirg‘iz diyorida kechsa-da, ularda bir vaqtlar yagona Turkiston nomi bilan atalgan qadim mintaqaga daxldor umumiylik bor. Adib o‘rtaga qo‘yayotgan muammolar, qirg‘iz-u qozoqqa, o‘zbek-u tojikka, turkman-u qoraqalpoqqa barobar tegishlidir.

Chingiz Aytmatov milliy adabiyot rivojini tog‘ cho‘qqilari qadar yuksaklikka ko‘tara olgan, noyob iste’dodi va ijodiy jasorati bilan dunyoni hayratga sola bilgan adiblar sirasiga kiradi. U adabiyotdagi mafkuraviy bir xillik va mafkuraviy an’anaviylikni kutilmaganda buzib tashladi. O‘quvchisini hamma uchun tanish bo‘lib qolgan ravon, bexatar yo‘llarga emas, chag‘ir toshlardan iborat mashaqqatli so‘qmoqlarga, baland dovonlarga yetaklaydi. Kitobxonni ortiqcha qiynamaydigan yengil yechimlardan voz kechib, dastlabki hikoyalari, publitsistik maqolalaridayoq hayotda tekis yo‘llar, baxtli intiholar bilan birga qaltis tasodiflar, xavfli burilishlar, boshi berk ko‘chalar, yetib bo‘lmas manzillar ham borligini qayd etdi.

(Davomi 3-sahifada).

SIYOSAT

BIZGA YUZLANGAN KUNCHIQAR

Tokio shahrida Markaziy Osiyo – Yaponiya sammiti orqali Kunchiqar davlat mintaqamiz mamlakatlari bilan diplomatik va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashni maqsad qilgan. Sammitda mintaqaviy xavfsizlik, savdo va investitsiya imkoniyatlari bo‘yicha muzokaralar o‘tkazilishi rejalashtirilgan.



Hukmron Liberal-demokratik partiya vitse-prezidenti Taro Aso Yaponiya va Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi do‘stlikni rivojlantirishga bag‘ishlangan yig‘ilishda so‘nggi paytlarda Rossiya, Xitoy, AQSH va boshqa davlatlar Markaziy Osiyo bilan sammitlar o‘tkazganini ta’kidlab, Yaponiya bilan ham shunday diplomatik tadbir o‘tkazilishining ahamiyatini yuqori baholagan edi. Yaponiya bu tadbirni global davlatlarning mintaqaga ta’sirini muvozanatlash imkoniyati sifatida ko‘rmoqda.

So‘nggi yillarda siyosiy leksikonga “C5+1 formati” degan ibora kirib keldi. Markaziy Osiyodagi beshta mamlakat ishtirokidagi “C5+1 formati” AQSH, Rossiya, Xitoy, Hindiston, Janubiy Koreya, Yaponiya, Turkiya, shuningdek, Yevropa Ittifoqi bilan yo‘lga qo‘yilgan. Tahlilchilar O‘zbekistonda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida jahon hamjamiyatining Markaziy Osiyoga qiziqishi kuchaygani, bunga birinchi navbatda mintaqadagi barcha mamlakatlar bilan chegaradosh O‘zbekistonning ochiqlik siyosati sabab bo‘lganini ta’kidlaydi.

Ma’lumki, dunyodagi uchinchi iqtisodiyot hisoblanmish Yaponiya an’anaviy ravishda “Katta yettilik” va ASEAN kabi guruhlarga a’zo rivojlangan mamlakatlar bilan hamkorlikka e’tibor qaratadi va AQSHni asosiy ustuvor sherik hisoblaydi. Biroq XX asrning yirik voqealaridan biri bo‘lmish Sovet Ittifoqining tarqab ketishi va Markaziy Osiyoda yangi mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishi Yaponiya uchun ham tashqi siyosat yo‘nalishlarini qayta ko‘rib chiqishga sabab bo‘ldi. Bu borada birinchi urinish 1997-yilda yuz berdi. O‘sha vaqtdagi Yaponiya bosh vaziri Xasimoto Ryutaro yuqori darajadagi Korporativ rahbarlar Assotsiatsiyasida qilgan chiqishida “Yevroosiyo diplomatiyasi” deb nomlangan yangi siyosatni va ushbu diplomatiya doirasida Yaponiyaning “Buyuk Ipak yo‘li” o‘tgan Markaziy Osiyo va Kavkaz mamlakatlari bilan aloqalari mustahkamlanganini e’lon qilgan edi. Keyinchalik uning nomi “Buyuk Ipak yo‘li diplomatiyasi” deb o‘zgartirildi. “Buyuk Ipak yo‘li diplomatiyasi” uchta prinsipdan – o‘zaro ishonchni mustahkamlash uchun siyosiy muloqot mexanizmlarini ishlab chiqish, mintaqaviy farovonlikni yuksaltirish uchun iqtisodiy hamkorlik hamda yadro qurolini tarqatmaslik rejimini saqlab qolish, demokratiyani rivojlantirish va siyosiy barqarorlikni saqlash maqsadida hamkorlikni kuchaytirishdan iborat edi.

Ma’lumki, “C5+1 formati” avval boshdanoq faqat bitta mamlakatga qaratilmagan, balki Markaziy Osiyo mamlakatlariga kompleks yondashuvga asoslangan edi. Yaponiya birgalikda hal qilinishi kerak bo‘lgan masalalar bo‘yicha mintaqani yagona organizm deb hisoblagan birinchi mamlakat bo‘ldi.

Yaponiya Bosh vaziri Sanae Takaichi bu galgi uchrashuvga katta umid bog‘lagan. Xususan, tabiiy resurslarga boy mintaqa bilan aloqalarni chuqurlashtirish, iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash hamda turli sohalarda hamkorlikni kengaytirish imkoniyati ko‘rib chiqiladi. Yaponiya ommaviy axborot vositalarining xabar berishicha, tarixiy sammit ortida chuqur geopolitik manfaatlar yotibdi. Tokiodagi uchrashuv bir necha asosiy yo‘nalishlarni belgilab beradigan muhim voqea bo‘ladi. Bu sammit mintaqada Yaponiya ishtirokini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Nufuzli ekspertlarning fikricha, Yaponiya mintaqada nafaqat investitsiya faolligini oshirish uchun yangi yo‘nalishlarga, balki boshqa mamlakatlardan farqli o‘laroq, o‘zining raqobatdosh ustunliklariga ham ega. Uzoq vaqtdan beri mintaqada katta obro‘ qozongan Yaponiya innovatsiya va inson kapitali evaziga kuchli texnologik sakrashga erishgan davlat sifatida ko‘riladi. Boshqa mamlakatlardan farqli o‘laroq, Yaponiya ikki tomonlama munosabatlarni o‘rnatish bilan bir qatorda, ekologiyadan tortib suv resurslarigacha bo‘lgan ko‘plab ichki muammolarni birgalikda hal qilish uchun Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga doimo ko‘proq qiziqish bildirib kelgan.

Yaponiyaning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik aloqalariga qaratilgan strategiyasi O‘zbekistonning tashqi siyosatiga mos keladi. Ayni paytda, mintaqadagi barcha mamlakatlar siyosiy rahbariyati va jamoatchiligi ham ushbu hamkorlik mamlakatlarimiz uchun faqat foyda keltirishini yaxshi anglaydi.

Bugun Markaziy Osiyo davlatlari jahon hamjamiyatida ajralmas mintaqa sifatida qabul qilinayotgani e’tiborli holat. Bu besh mamlakatning mintaqaviy integratsiyasi foydasiga qo‘shimcha dastak bo‘lishi va bu jarayonda yangi dinamikani rag‘batlantirishi tobora ravshanlashib bormoqda.

Sharofiddin TO‘LAGANOV

C5+YAPONIYA

Boshlanishi 1-sahifada.

Yaponiya inson kapitalini rivojlantirishga katta ahamiyat beradi. O‘zbekiston ham bu borada Yaponiyaning tajribasidan o‘rganishi va malakali mutaxassislarni tayyorlashda hamkorlik qilishi mumkin.

O‘zbekiston Prezidentining “Markaziy Osiyo + Yaponiya” birinchi sammitida ishtirok etishi ham tashrifning ahamiyatini yanada oshiradi.

Sammit doirasida “yashil iqtisodiyot” va barqaror taraqqiyot, o‘zaro bog‘liqlik va mintaqaviy sheriklikni mustahkamlash hamda inson resurslarini rivojlantirish kabi dolzarb masalalar muhokama qilinadi.

Bu esa Markaziy Osiyo davlatlari va Yaponiya o‘rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqib, mintaqaviy xavfsizlik va umumiy taraqqiyotga xizmat qiladi. Sammit yakunlari bo‘yicha qabul qilinadigan Tokio deklaratsiyasi mintaqaviy siyosat va hamkorlikning yangi yo‘nalishlarini belgilab berishi kutilmoqda.

Joriy sammit “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqotining 20 yilligiga bag‘ishlangan. Dastlab forum 2024-yilning avgust oyida Qozog‘istonda o‘tkazilishi rejalashtirilgan, ammo Yaponiyadagi kuchli zilzila xavfi tufayli tadbir so‘nggi daqiqalarda bekor qilingan edi. Shu o‘rinda, Tokio 2004-yili “C5+1” hamkorlik formatini taklif qilib, mintaqani bir butun organizm sifatida qaraydigan ilk ishtirokchi bo‘lganini ta’kidlash joiz.

Yaponiya O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridanoq mamlakat energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilishni faol qo‘llab-quvvatlab kelayotgan kamsonli davlatlardan biri bo‘lib, jumladan, issiqlik elektr stansiyalarini barpo etish va modernizatsiya qilish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda tegishli infratuzilma obyektlarini rivojlantirishda ishtirok etmoqda.

Misol uchun, Namangan viloyatida quvvati 900 MVt bo‘lgan To‘raqo‘rg‘on IES qurilishi va Navoiy IES bazasida quvvati 650 MVt bo‘lgan uchinchi bug‘-gaz qurilmasining o‘rnatilishi eng muhim qo‘shma loyihalar sirasiga kiradi.

“Mitsubishi Corporation” va “Mitsubishi Power” kompaniyalari ishtirokida, shuningdek, Yaponiya moliya institutlari ko‘magida barpo etilgan obyektlar energiya ta’minoti ishonchliligini oshirish, yoqilg‘i sarfini optimallashtirish va issiqxona gazlarining solishtirma tashlamalarini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Yangi bloklar birgalikda yiliga 10 milliard kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarib, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror energiya bilan ta’minlashga katta hissa qo‘shadi.

Ikki davlat quyosh va shamol elektr stansiyalarini barpo etishga oid yirik qo‘shma loyihalarni maqsad qilgan. Ulardan biri joriy yilning oktyabr oyida e’lon qilingan Buxoro va Samarqand viloyatlarida umumiy quvvati 1000 MVt bo‘lgan quyosh parkini yaratish loyihasidir. Ushbu loyiha “Sumitomo”, “Chubu Electric”, “Shikoku Electric” kabi yapon kompaniyalari ishtirokida hamda Yaponiya xalqaro hamkorlik bankining moliyaviy ko‘magida amalga oshirilmoqda.

Mazkur quyosh parki nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida qayta tiklanuvchi energiya manbalari sohasidagi eng yirik va zamonaviy loyihalardan biriga aylanadi. Loyihaning amalga oshirilishi 600 mingtacha xonadonni elektr energiyasi bilan ta’minlash, shuningdek, karbonat angidrid chiqindilarini yiliga taxminan 1,3 million tonnaga qisqartirish imkonini beradi.

Yaponiya mintaqada yaxshi obro‘ va kuchli texnologik sakrashga erishgan davlat sifatida ijobiy imijga ega. Yaponiyaning ayrim yirik davlatlardan farqli o‘laroq, Markaziy Osiyo mintaqasida “buyuk davlatchilik”ka oid geosiyosiy ambitsiyalari yo‘q. Bularning barchasi ta’lim, ilm-fan, axborot va madaniy-gumanitar sohalarda “yumshoq kuch”ni amalga oshirish uchun yaxshi asos yaratadi. Yaponiya Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan, avvalo, turli sohalarda boshqa geosiyosiy o‘yinchilar bilan munosabatlarda iqtisodiy va siyosiy muvozanat sifatida ko‘rilishi mumkin.

Tokio o‘z siyosatida mintaqaga nisbatan o‘zaro tenglik, hurmat va o‘zaro manfaatlarni hisobga olish prinsiplariga asoslanadi hamda hamkorlik uchun asossiz siyosiy shartlar qo‘ymaydi. O‘z navbatida, mintaqada Yaponiyaga qarshi kayfiyat yo‘q, yapon tovarlari esa hududda sifat namunasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yaponiyaga uch kunlik tashrifi hamda Tokioda tashkil etilayotgan Markaziy Osiyo va Yaponiya sammitidagi ishtiroki tomonlar o‘rtasidagi uzoq geografik masofani yaqinlashtirishga va umumiy maqsadlarni birgalikda amalga oshirishga imkon beradi.

Jamoliddin BADALOV

OLTIN AVLOD ODIMLARI

Boshlanishi 1-sahifada.

REKORD NATIJA

10-13-dekabr kunlari Dubay shahrida yoshlar o‘rtasidagi yirik va nufuzli musobaqalardan biri – V Paraosiyo o‘yinlari bo‘lib o‘tdi. Unda 35 ta davlatdan kelgan 1500 nafardan ortiq sportchi orasida hamyurtlarimiz tarixiy natijalarni qayd etdi.

Shu munosabat bilan Prezident Shavkat Mirziyoyevning Yoshlar o‘rtasida V Paraosiyo o‘yinlari g‘oliblari – O‘zbekiston sport delegatsiyasi a’zolariga tabrigi e’lon qilindi. Unda, jumladan, shunday deyiladi:

“Ushbu nufuzli sport anjumanida sizlarni ko‘p millatli butun xalqimiz qo‘llab-quvvatlab, barchangizga zafar va omadlar tilab turdi. Ana shunday yuksak ishonchni sharaf bilan oqlab, 99 ta oltin, 57 ta kumush, 41 ta bronza medal bilan umumjamoa hisobida Osiyo qit’asida 1-o‘rinni egallab, g‘oliblik shohsupasiga ko‘tarilganingiz muborak bo‘lsin!

Turnir davomida O‘zbekiston madhiyasi qariyb 100 marta yangragani sizlarning Vatanimiz shuhratini dunyoga tarannum etishga qanday beqiyos hissa qo‘shganingizdan dalolatdir”.

E’tiborlisi, vakillarimiz Osiyoning milliy sporti jadal rivojlanayotgan Eron, Yaponiya, Tailand, Indoneziya kabi davlatlari jamoalarini ham ortda qoldirishga muvaffaq bo‘ldi. O‘zbekiston Paraosiyo o‘yinlari tarixida bunday rekord natija, bunday zafar ilgari hech qachon bo‘lmagan edi.

Tabrikda g‘oliblarga “O‘zbekiston paralimpiya harakatining oltin avlodi” deya baho berilib, qahramonlar nomma-nom sanab o‘tiladi:

“Ayniqsa, para pauerliftingchi o‘g‘il-qizlarimiz Bahriddin Xolbo‘tayev, Elbek Farhodov, Oyshajon Rajabboyeva, Ruxshona O‘ktamova o‘z vazn toifalarida jahon rekordini, Nurillo Inobiddinov, E’zoza Abdujabborova, Azizbek Perdebayev, Ruxshona O‘ktamova, Ziyodaxon Boqijonova, Zuhra Yuldasheva, Gulyuz Ne’matullayeva esa Osiyo rekordini o‘rnatganlarini alohida ta’kidlash lozim.

Yana bir muhim tarixiy natija – sportchi qizlarimiz Madina Muxtorova, Farog‘at Muhammadqulova, Mohichehra Ibragimova para yengil atletikaning yadro va nayza uloqtirish dasturlari doirasidagi murosasiz bahslarda raqiblariga mutlaqo imkoniyat qoldirmasdan, butun medallar jamlanmasini O‘zbekistonga olib keldilar”.



Ta’kidlash joizki, mamlakatimizda Ijtimoiy himoya milliy agentligining tuzilgani, Adaptiv sport turlari assotsiatsiyasi faoliyati yo‘lga qo‘yilgani, ushbu tizimda Matonat maktabi hamda sohada mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha institut tashkil qilingani bu yutuqlar poydevori bo‘ldi. Yaqinda esa mamlakatimizda Paralimpiya harakatini yanada rivojlantirish bo‘yicha maxsus qaror qabul qilindi. Bu sport olamidagi yutuqlarimiz salmog‘ini yanada oshirishga xizmat qiladi.



Tarixiy natija qayd etgan O‘zbekiston sport delegatsiyasi poytaxtimizdagi “Humo” Toshkent xalqaro aeroportida tantanali ravishda kutib olindi. Ushbu bemisl g‘alabalar sportchilarimizning jasorat va matonati, Vatanga, hayotga yuksak muhabbatidan dalolat beradi.

ENG YUKSAK DARAJA

Maqola avvalida fan olimpiadalarini eslaganimiz bejiz emas. Joriy haftada Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan 2024-2025-o‘quv yili davomida xalqaro va mintaqaviy fan olimpiadalarida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan o‘quvchilar va ularning ustozlarini taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.

Qayd etilganidek, 2025-yilda yurtimiz o‘quvchilari 29 ta xalqaro olimpiadada munosib ishtirok etib, jami 210 ta medal (40 ta oltin, 78 ta kumush, 92 ta bronza)-ni qo‘lga kiritdi. Ma’lumot uchun: xalqaro fan olimpiadalarida 2019-yilda 30 ta medal qo‘lga kiritilgan.

Joriy yilda o‘quvchilarimiz eng nufuzli xalqaro olimpiadalarda 13 ta (2 ta oltin, 7 ta kumush va 4 ta bronza) medalga sazovor bo‘lgani e’tiborlidir. Taqdirlash marosimida mana shu yuksak medallar uchun: oltin medal sohibiga 1 milliard 30 million so‘m, o‘qituvchisiga 185,4 million so‘m; kumush medal sohibiga 618 million so‘m, o‘qituvchisiga 103 million so‘m; bronza medal sohibiga 412 million so‘m, o‘qituvchisiga 61,8 million so‘m pul mukofoti taqdim etildi.

Bundan tashqari, o‘quvchini olimpiadalarga tayyorlagan o‘qituvchining malaka toifasi bir pog‘ona ko‘tariladi. Mintaqaviy xalqaro olimpiada g‘oliblari hamda asosiy olimpiadaning respublika bosqichi g‘oliblari keyinchalik ta’lim muassasalarida o‘qituvchi sifatida g‘olib bo‘lgan fanidan dars bergan taqdirda, lavozim maoshiga har oy 100 foizlik ustama oladi.

Joriy yilda xalqaro fan olimpiadalari g‘oliblari va ularning ustozlarini taqdirlash uchun davlat byudjetidan jami 12 milliard 424 million so‘mga yaqin mablag‘ ajratilgan (2019-yilgi 780 million so‘mdan qariyb 17,5 barobarga ko‘p).

Avvallari “Nega sport olimpiadalari g‘oliblari tantanali kutib olinadi, katta miqdorda pul bilan taqdirlanadi-yu, fan olimpiadalari g‘oliblariga faqat “Faxriy yorliq” beriladi?” degan e’tirozlarga hayotda ham, ijtimoiy tarmoqlarda ham tez-tez duch kelardik. Endi bu kabi savollarga o‘rin qolmadi.

Taqdirlanganlar orasida Daler Rahimov hamda Mirjahon Muhammadov qariyb 1 milliard 40 million so‘mdan pul mukofoti sohibiga aylandi.

Ushbu shukuhli voqea munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining ta’limni isloh qilish bo‘yicha o‘rinbosari Hilola Umarova telegram sahifasida post qoldirdi:

“Abu Rayhon Beruniy 18 yoshida Yer radiusini hisoblashni boshlagan edi. Yurtdoshimiz Mirjahon shu yoshida Dubay shahrida bo‘lib o‘tgan 57-xalqaro Kimyo olimpiadasida oltin medalni qo‘lga kiritdi. Aynan xalqaro Kimyo olimpiadasida ketma-ket ikki marotaba oltin medalga egalik qilgan Daler ham bugun 18 yoshda. Abu Ali ibn Sino bu yoshida Buxoro amiri saroyiga tabib sifatida qabul qilingan edi.

Nodirabegim 24 yoshida olim va shoirlarni saroy atrofiga to‘plab, adabiyot va ma’rifatni rivojlantirish yo‘lida xizmat qilgan. Kimyo fani bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasining treneri Mohira Boltayeva ham aynan shu yoshida o‘nlab o‘quvchilarni nufuzli olimpiadalarga tayyorladi va ilm-fan sohasida millioner o‘qituvchiga aylandi.

Aristotel asarlariga sharhlar yozishni boshlagan vaqtida Forobiy 17 yoshda edi. Shu yoshni qarshilagan Behruz esa Avstraliyada o‘tgan 66-xalqaro Matematika olimpiadasida kumush medalni qo‘lga kiritdi. Shu olimpiadaning yana bir kumush medalini qo‘lga kiritgan Elbek esa 16 yoshida tarixiy natija qayd etdi. Buyuk Xorazmiyning Bag‘dodda “Baytul hikma”ga kirib borgan yoshini eslang.

Nazarimda, bu yoshlarimiz buyuk ajdodlarimizning munosib va haqli izdoshlariga aylanmoqda”.

Shunday qilib, 2025-yilda Xalqaro fan olimpiadalaridagi ko‘rsatkichlarimiz tarixdagi eng yuqori darajaga ko‘tarildi.

Fan va sport sohasidagi yutuqlarimiz bardavom bo‘lsin!

O‘ktam HAMRAALI

HAL QILUVCHI OMIL



Boshlanishi 1-sahifada.

Barchamiz yaxshi bilamizki, bugun Yangi O‘zbekistonda pedagoglar ham moddiy, ham ma’naviy tomondan tizimli ravishda qo‘llab-quvvatlanmoqda. O‘tgan vaqt mobaynida o‘qituvchilarning oylik maoshiga o‘ndan ortiq ustamalar joriy qilindi. Bugun o‘z ustida ishlagan 60 mingdan ortiq pedagogga 10-12 million so‘m maosh to‘lanyapti. Yangi baholash tizimi bo‘yicha ijobiy natija ko‘rsatgan 300 ta maktabning butun jamoasiga 40 foizgacha ustama berilmoqda. Sentyabr oyidan maktab direktorlari, bog‘cha mudiralari va ularning o‘rinbosarlari oyligi ham 10 million so‘mdan oshirildi.

Davlatimiz rahbari joriy yilning 15-sentyabr kuni Bo‘stonliq tumanida pedagoglar bilan muloqot qildi. Unda ustoz va murabbiylarning ijtimoiy sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha ham qator imtiyozlar e’lon qilindi. Xususan, yangi yildan boshlab kamida 15 yil stajga ega bo‘lgan oliy toifali pedagoglarga ipoteka krediti boshlang‘ich badalining 25 foizi qoplab beriladi. Kelgusi o‘quv yilida davlat oliygohlariga o‘qishga kirgan pedagoglar farzandlarining shartnomasi summasiga 30 foiz chegirma beriladi. Kelasi yildan pedagoglar uchun davlat xizmatlari to‘lovi 2 karra kamaytiriladi.

Fan o‘qituvchilari kabi boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari uchun ham milliy sertifikat berish tizimi joriy qilinadi. Sertifikat olganlarga har oyda 15 foiz ustama to‘lanadi. Bakalavr bosqichini imtiyozli diplom bilan bitirib, maktabga ishga kirganlarga avtomatik ravishda 2-malaka toifasi, magistrlarga esa 1-malaka toifasi beriladi.

* * *

Xalqimizda “Qars – ikki qo‘ldan”, degan dono naql bor. Endi gap qadrli ustoz va murabbiylarning yaratib berilayotgan shart-sharoitlardan unumli foydalanishi, shaxsiy rivojlanishi, o‘quvchi va shogirdlarning yutuqlari bilan munosib javob berishida qoldi. Zamon sur’ati tezlashib borar ekan, har bir pedagogga tajriba va an’anaviy ta’lim usullaridan tashqari, zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish zarurati ham tug‘iladi. Ushbu masala ham davlat e’tiborida bo‘lib, so‘nggi yillarda bu bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Prezidentining 2024-yil 21-iyunda “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori imzolandi.

Joriy yil 15-mayda Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida maktab ta’limi tizimidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Yig‘ilishda pedagoglarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimiga e’tibor qaratildi. Bu borada Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti va uning 13 ta hududiy markazi qayta tashkil etildi. Nizomiy nomidagi oliygoh Milliy pedagogika universitetiga aylantirilib, uning rektori bir vaqtning o‘zida kadrlar tayyorlash bo‘yicha vazir o‘rinbosari etib tayinlandi. Pedagogik mahorat va xalqaro baholash markazi tashkil qilindi.

Endilikda hududlardagi malaka oshirish markazlari faoliyati ham kengaytiriladi. Ulardagi professor-o‘qituvchilar AQSH, Buyuk Britaniya, Singapur, Germaniyaning ilg‘or dasturlari asosida qayta tayyorlanadi. Shu bilan birga, o‘rta ta’limdagi 17 ta fanning har biri bo‘yicha alohida tayanch maktablari ochiladi. Tayanch maktab o‘qituvchisi Malaka oshirish markazida xalqaro dasturlar asosida chuqur tayyorlanadi, ularga trener maqomi beriladi. Keyin bu trenerlar o‘ziga biriktirilgan hududda 25 nafar yetakchi o‘qituvchini o‘qitadi. Yetakchi o‘qituvchilar esa o‘z maktabidagi boshqa muallimlarning malakasini oshirib boradi. Bundan tashqari, universitet, markaz va maktablardan muallimlar xorijga malaka oshirishga yuboriladi.

Bugungi kunda xususiy oliygohlarga keng yo‘l ochilgan. Lekin ularda pedagogika yo‘nalishidagi talabalarning 70 foizi maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim va filologiya bo‘yicha o‘qiyapti. Birortasida kimyo, biologiya va fizika bo‘yicha muallim tayyorlanmaydi. Vaholanki, maktablarimizda aniq va tabiiy fanlar bo‘yicha o‘qituvchi yetishmaydi. Shu bois, bundan buyon, xususiy oliygohlardagi pedagogik yo‘nalishlar davlat institutlari bilan bir xil bo‘ladi. Ulardagi pedagoglar va talabalar bilimi tashqi diagnostikadan o‘tkaziladi. Bu orqali nodavlat oliygohlarda pedagog tayyorlash sifati nazoratga olinadi.

Shuningdek, bog‘cha tarbiyachilarining malakasi, mahorati va psixologik tayyorgarligini oshirish uchun kasbiy sertifikatlash tizimi joriy etiladi.

* * *

Davlatimiz rahbari yuqorida zikr etilgan videoselektorda Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutiga bejiz to‘xtalmadi. 2024-yilning 30-sentyabr kuni Prezidentimiz ushbu maskanga tashrif buyurib, yangilangan sharoitlar bilan tanishgan edi.

Institut bundan 91 yil oldin, 1934-yilda ochilgan. Shunga bag‘ishlab, bu yerda muzey tashkil etilgan. Unda jadid bobolarimizning ilmga e’tibori, Abdulla Avloniy asos solgan maorif tizimi, o‘sha davrdagi darsliklar va sahna asarlari, umumiy ta’limning rivojlanish bosqichlari aks etgan. Sun’iy intellekt yordamida ma’rifatparvar jadidlar qiyofasi gavdalantirilgan. Bu yerda qariyb 90 ming kitob fondiga ega kutubxona ham bor.

Muassasada malaka oshirish va qayta tayyorlashning an’anaviy, muqobil hamda dual shakllari, shu jumladan, sun’iy intellekt texnologiyalari asosida o‘qitish joriy etilgan. Situatsion o‘quv xonasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi pedagogik mahorat markazlari bilan videoaloqa orqali ulangan. Uzluksiz kasbiy ta’lim, menejerlik o‘quv kurslari, pedagoglarni attestatsiyadan o‘tkazish va malaka toifasini berish, maktabgacha va maktab ta’limini boshqarish kabi dasturiy platformalar joriy etilgan. Bu esa hududlardagi direktor va o‘qituvchilarni yangi pedagogik texnologiya va uslublarga tezkor o‘qitish imkonini beradi.

Bugungi kunda maktab direktori nafaqat tajribali pedagog, balki yaxshi boshqaruvchi, ma’lum ma’noda strateg ham bo‘lishi kerak. Institut o‘quv dasturida bunga katta e’tibor qaratilib, direktorlar maktabi tashkil etilgan.

Inklyuziv ta’lim va psixolog xonalarida shu yo‘nalishda ishlaydigan defektolog va tarbiyachilar malakasi oshiriladi. Media studiyada videodarslar tasvirga olinadi. Ma’lumki, bugun mamlakatimizda aniq va tabiiy fanlarga alohida ahamiyat qaratilib, maktablar zamonaviy jihoz va o‘quv qo‘llanmalari bilan ta’minlanmoqda. Bu o‘qituvchilardan shunga moslashishni, yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni talab qiladi. “STEM” laboratoriyasi pedagoglarni shu borada qayta tayyorlash va malakasini oshirishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz muassasadagi yangi qulaylik va imkoniyatlar bilan tanishar ekan, “Bu institut kutib o‘tiruvchi emas, targ‘ibotchi, yetakchi bo‘lishi kerak. Hududlardagi o‘qituvchi va direktorlarni ko‘proq taklif etib, barcha maktablarda sifatni oshirish zarur. Yangi zamon kishisi, kelajagimiz bunyodkorlari maktabda tarbiyalanadi. Ta’limsiz kelajak yo‘q”, deya ta’kidlagan edi.

Umuman, mamlakatimizda maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari rahbar, pedagog hamda mutaxassis kadrlarini qayta tayyorlash hamda malakasini oshirishning uzluksiz tizimi yo‘lga qo‘yildi. Joriy yildan boshlab ular besh yilda bir marotaba ishdan ajralgan holda malaka oshiradi. Bundan tashqari, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Kasbiy rivojlanish soati” hamda “Kasbiy rivojlanish kuni” joriy etildi. Prezident maktablarida to‘plangan ilg‘or tajribalar uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi orqali umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga keng tatbiq qilina boshlandi.

* * *

Pedagoglar malakasini oshirish masalasi nimasi bilan bu qadar dolzarb? Nima uchun ushbu masalaga davlat rahbari darajasida qayta-qayta e’tibor qaratilmoqda? Chunki, o‘qituvchilarning malakasini oshirish shunchaki seminarda qatnashish yoki kursni yakunlash emas. Bu bilim olishning uzluksiz jarayoni bo‘lib, doimiy ravishda yangi bilimlarni izlashga, mahoratni oshirishga sharoit yaratadi va o‘qitish usullarini yoshlarning o‘sib borayotgan ehtiyojlarini qondirishga moslashtiradi.

Eng muhimi, o‘qituvchining kasbiy rivojlanishi o‘quvchilarning yaxshi natijalarga erishishiga zamin hozirlaydi. Bejiz qadimdan “Kimning bolasisan?” degan savoldan keyin “Ustozing kim?” deb so‘rashmagan.

Malaka oshirishda hamkasblar ilg‘or tajribalarini o‘rtoqlashadi, bir-birining yutuq va kamchiliklarini tahlil qiladi. Bundan tashqari, pedagoglar sinfdagi muammolarga ijodiy yechimlarni ishlab chiqishi va o‘qitish yondashuvlarini doimiy ravishda takomillashtirishi mumkin bo‘ladi.

Bu jarayonning psixologik foydalari ham bor. Xususan, yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirgan o‘qituvchida o‘ziga nisbatan ishonch ortadi, faoliyati davomida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyin vaziyatlardan chiqish uchun innovatsion yondashuvlarga ega bo‘ladi. Bu esa faoliyatda samaradorlikni oshirib, o‘qituvchini ruhlantiradi.

* * *

Jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashar ekanmiz, avvalo, ta’limga, ilm-fanga suyanamiz. Qolaversa, Prezidentimiz ta’kidlaganiday, “Iqtisodiyot rivojlanishi, yurtimiz va farzandlarimiz kelajagi faqat va faqat ta’lim va muallimga bog‘liq. Sizlar bilan ish boshlagan birinchi kundan aytaman: ta’lim, ta’lim, ta’lim, muallim, muallim, muallim”. Bu yo‘lda pedagogning malakasi hal qiluvchi omillardan biri. Bu yo‘ldagi islohotlar takomillashtirilib, izchil davom ettirilar ekan, yosh avlod taqdiri ishonchli qo‘llarda ekaniga amin bo‘lamiz.

Otabek BAKIROV

TOG‘LARNI QULASHDAN ASRAGAN ADIB



Boshlanishi 1-sahifada.

“Biz, adabiyotchilar yangi tarixiy sharoitda yangi muammolarga duch keldik, – deb yozadi adib. – Adabiyotning bugungi vazifasi kechagi o‘tgan kunimizdagi vazifadan, ziyolining jamiyat oldidagi o‘rni va mas’uliyati kechagidan tamomila farq qiladi. Hayot, odamlarning turmush tarzi, o‘y-fikrlari tamomila o‘zgarib ketdi. Hozir, aytishim mumkinki, birgina O‘zbekiston yoki Qirg‘izistonda emas, butun mintaqada, butun dunyoda o‘ziga xos tozarish jarayoni davom etmoqda. O‘zlikni anglash, o‘zlikka qaytish fasli borayotir. Tamoyillar ham, taomillar ham o‘zgardi. Milliy, umuminsoniy qadriyatlar qaytadan qaddini tiklamoqda. Qurib qolayozgan, ko‘zlari yopib tashlangan buloqlarning ko‘zlari ochilmoqda. Umumbashariy tafakkur ong-shuurimizga singmoqda. Bunday sharoitda adabiyot o‘zgarmay qolishi mumkinmi? Hamon eskicha yozish, kechagi kun yutuqlari bilan qanoatlanib o‘tirish mumkinmi? Mumkin emas! Adabiyot endi chinakamiga xalqchil, millatparvar, ma’naviy taraqqiyotimizning sadoqatli xizmatkori bo‘lishi kerak”.

Chingiz og‘a bu talabga eng avvalo o‘zi amal qildi. Nainki o‘zi, qissa va romanlarining qahramonlari ham xalqqa, el-yurtga xizmat qilishni yuksak insoniy burch deb bildi.

Adib ijodi dunyo miqyosida yuzga yaqin adabiy-badiiy, madaniy-falsafiy mukofotlarga munosib ko‘rilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlariga binoan, unga “Do‘stlik” va “Buyuk xizmatlari uchun” ordenlari topshirilgan. 2019-yili Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sessiyasida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Kengashga a’zo mamlakatlarning zamonaviy adabiyot va san’at, tarix va me’morlik sohasida ulkan yutuqlarga erishgan ijodkorlarini rag‘batlantirish maqsadida Kengash doirasida Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotni ta’sis etish taklifini kiritgan edi. Ushbu nufuzli mukofot 2022-yili birinchi marta dunyo birligiga qo‘shgan ulkan hissasi uchun buyuk adib va jamoat arbobi Chingiz Aytmatovga berildi.

* * *

Chingiz og‘a oramizdan ketdi. Uning vafoti haqidagi xabar tog‘-u dashtlar osha Toshkentga yetib kelganida, vujudim titrab ketgan. Adibni yaqindan bilgan do‘st-qadrdonlari, million-million o‘quvchilari bilan birga yozgan asarlarining qahramonlari ham adib uchun aza tutganday bo‘lgandi o‘shanda.

Xayol qilaman. Sovuq xabarni eshitgan Tanaboy do‘sti Choroni esladi, “Hamma o‘lib ketadi, hamma, bir kishi qolmaydi. Ishlaganlar, umrini azobda o‘tkazganlar ham, tekintomoqlar, birovning haqidan xazar qilmaydiganlar ham”, deya aravani asta sudrab borayotgan Gulsarini qamchin bilan savalay ketdi, g‘ildirak bir nimaga urilib, arava ag‘darilayozdi”.

Bug‘doy dalalari bo‘ylab jadal borayotgan Jamila Doniyorni quchoqlab yig‘ladi. “Og‘am-ov”, deya o‘krab yubordi, ko‘ksidan og‘riqli faryod otilib chiqdi: “Og‘ajon, meni sizchalik hech kim tushunmadi, faqat siz tushundingiz. O‘zingizni ne-ne malomatlarga qo‘yib bo‘lsa-da, himoya qildingiz. Bilsangiz, bu ishni hatto ota-onam ham qila olmasdi, siz qildingiz. “Jamila qizim, Doniyorga ishon, undan madad ol. U senga sevgi, vafo, ona-yer haqida qo‘shiqlar kuylab bersin. Olis yo‘ldan qo‘rqma, sening yo‘ling baxt yo‘li, sen o‘z baxtingni topishing kerak”, dedingiz. Sizga ishonib yo‘lga chiqqandim, sizdan yana va yana madad olmoqchiydim, nega bunday qildingiz, og‘ajon. Sizsiz yashash men uchun oson deb o‘ylaysizmi?”

Ilyos mashinasini zarb bilan o‘t oldirib yo‘lga tushdi, qayoqqa borishi noma’lum, oyoq-qo‘llari o‘ziga bo‘ysunmas, tezlikni oshirar, qandaydir ichki bir tuyg‘u uni Asal bilan uchrashgan o‘sha dovon yo‘liga undardi. Qani endi, hammasi ortga qaytsa-yu, mashina tagida turib, Asalning “Kampir emasman”, degan so‘zlarini yana bir marta eshitsa, qilmishlari uchun “Yozuvchi bobo, meni siz kechiring”, deya olsa...

Anchadan beri yig‘lamagan, bir vaqtlar urushdan qochgani deyarli unut bo‘lib ketgan Ismoilning ko‘zlariga kutilmaganda yosh keldi. “Chingiz bobo, ota mehriga to‘ymagan ovuldoshim, men sizdan xafa emasman, buni o‘zingizga ham aytganman, aybimni yuvib, odam bo‘ldim, elga qo‘shildim, sizga aytadigan gaplarim bor edi hali”, deya pichirladi. Uning so‘zlarini o‘zidan boshqa hech kim eshitmadi.

Saidaning ko‘zlari namlandi, ammo yig‘lamadi. Ichi to‘lib, kimgadir bir nimalar demoqchi bo‘ldi, ammo uyda yolg‘iz o‘zi edi. “O‘shanda... “eri yashiringan qamishzordan chiqib, kir bosgan yuzlaridan ter quyulib, xotiniga yaqinlashib, ikkovi yuzma-yuz bo‘lganida, Ismoil ilgarigi sodda Saidani emas, sochlari oqarib ketgan, yalangbosh, o‘z qarashlariga ega qat’iyatli Saidani ko‘rgan edi”, deb yozgansiz. Chingiz og‘a, siz aslo bo‘rttirmagansiz, men chindan ham tamomila boshqa bir ayolga, boshqa tan-u vujudga aylangan edim. Buning uchun adoqsiz tana-dashnomlarga qoldim, nomim yomonotliqqa chiqdi. Lekin bundan boshqacha yo‘l tutishim mumkin emasdi. Vijdonim buyrug‘ini bajardim va bu fikrimdan hanuz qaytgan emasman. Men sizdan bir umr minnatdorman”.

Sultonmurod hujumga shaylanib turgan bo‘ridan ko‘z uzmay: “Chingiz bobo, meni faqat siz qutqara olasiz, sizdan boshqa suyanchim yo‘q”, demoqchi bo‘ldi, ammo bu fikrini bo‘ri sezib qolishidan cho‘chib, nafasini ichiga yutgancha, raqibiga g‘olibona qarash qilib turaverdi.

To‘lg‘onoy to‘lg‘onib ketdi. Dala boshiga kelib unsiz yig‘ladi: “Dalam, ona-yerim, odam joniga qachon to‘yasan? Urushda halok bo‘lgan qanchadan qancha azamat ovuldoshlar kammidi? Suvonqulim, Qosimim, Maysalbegim, Jaynog‘im kammidi? Bu yorug‘ olamda qabriston bo‘lmagan bir joy qolmadi-ku, axir. Chingiz bolam otasining qabrini endi topganida bu nima ko‘rgulik...”

Baliqday suzib borayotgan Nurg‘oziningpala-partish harakatlaridan Issiqko‘l junbushga keldi, shovqin ko‘tarib, qirg‘oqlariga qayta-qayta bosh urdi, ammo bolaning umidbaxsh so‘zlarini tinglab, o‘zini bosdi: “Chingiz bobo, men Nurg‘oziman, cho‘kib ketganim yo‘q, suzishni yaxshi o‘rganib oldim, bo‘yim cho‘zildi, oq kemaga yetib borib, otamni topganimdan keyin, ikkovimiz sizni mehmonga chaqiramiz. Kelavering, birgalashib suzamiz. Suzishni bilmasangiz, sizga o‘zim o‘rgataman...”

Mo‘min chol “uh” dedi-yu, beholanib yangi kesilgan qarag‘ay to‘nkasiga munkayibgina o‘tirdi, ko‘z o‘ngi qorong‘ilashganday bo‘ldi, O‘rozqulga bir nima demoqchi edi, ammo uni hech qachon bunday notavon holda ko‘rmagani uchunmi, boshini quyi soldi. O‘tov ichiga kirib ketgan O‘rozqulning dag‘al ovozi qulog‘iga chalindi: “Shunday odamdan judo bo‘ldikmi, shunday odamdan-a?”

Avdiy Kallistratov xomush bo‘lib qoldi, yonida hech kim yo‘q, o‘zi eshitadigan darajada qon qotib qolgan lablarini arang harakatga keltirib, g‘o‘ldiradi: “Bu dunyo fikrlilar uchun emas, fikrlilar uchun emas...”

Kamon o‘qi ko‘ksiga qadalgan Onaning ruhi bezovtalandi: “Chingiz bolam, meni-ku, o‘z farzandim tanimadi, Do‘nanboyim tanimadi, qavmlaring seni ham tanishmadimi, nega avaylashmadi, sen ularga nima yomonlik qilgan eding-a, bolam?”

Filofey mangu bo‘shliq ichra suzib yurarkan, uni olamga mashhur qilgan qalam sohibining ruhi o‘zi tomon yaqinlashayotganini sezib, Yerdan kelgan bu qayg‘uli xabarga ajablanmadi, aksincha, ko‘ngli bir muncha xotirjam tortdi. Negaki, vaqti kelib, jamiki tug‘ilmish ruhobodda qo‘nim topadi.

Arsen Samanchin xuddi bir qorindan talashib tushgan inisidan ayrilganday iztirobga tushdi, o‘ziga o‘zi gapira boshladi: “Og‘ajon, odamlar pul, boylik deya bu dunyoda mavjud jamiki axloqsizliklarga qo‘shilgan, tog‘lar-u daryolarni ham sotib yuborishga tayyor, din-u diyonatni unutgan, dard-g‘ami bir nimani o‘marish, g‘amlash bo‘lib turgan bir paytda sizsiz biz nima ham qila olardik – buni o‘ylamabsiz-da. Bunday ketishda osmondagi noyob qushlar, o‘rmonlardagi hayvonlar ham omon qolmaydi. Odamzot yirtqich terisini kiyim sifatiga egniga solar ekan, o‘sha o‘zi qurbon qilgan hayvondan farqi qolmaydi-ku. Nega buni anglamaydilar?”.

Xayol qilaman. Xayollarim satrlarga aylanadi:

Bugun boshi egildi,
Olatog‘im, lolangning,
Nahot yo‘qotib qo‘yding
Tog‘day jo‘mard bolangni?!
Chingizim-ay, bovurim,
Ko‘kka o‘rlar hovurim.
Bizni tashlab ketdingmi,
Aytar so‘zingni aytib,
Murodingga yetdingmi?
O‘zbegim deb suyarding,
O‘z elingday ko‘rarding.
Ikki el orasida
Ko‘prik bo‘lib turarding.
Adolatning quyoshi
Otmay turgan tunlarda,
Do‘st-u dushman birlashgan
Malomatli kunlarda
Minbar uzra yangradi
Jasoratli so‘zlaring,
O‘sha kunlar dardimiz
Sening ham bo‘ldi darding.
Ovozimni sozlayin,
Mening aytarim tayin –
Boshing ko‘tar, To‘lg‘anoy,
Qaddingni tut, Jamila,
Ishq olamin yoritding
Muhabbating shami-la.
Hayot shunday yaralgan –
Yashab bo‘lmaydi yovsiz.
Chingizga tosh otdilar
Do‘st-u dushman ayovsiz.
Yer ekan-da, to‘ymaydi
O‘z bolasin joniga,
Qirg‘izimning Chingizi
Ketdi Manas yoniga.
Yig‘la, qo‘biz, dutorim,
Ko‘zingni yoshlab yig‘la,
So‘ndi bir so‘zga chechan,
To‘shingga mushtlab yig‘la,
Yig‘la, ey, turkiy dunyo,
Ko‘kda ma’yus oy, yig‘la,
Do‘lomonning qo‘lida
Qolgan qonli yoy, yig‘la!

Hamma bu og‘ir yo‘qotishni o‘zicha qabul qilar, vido qo‘shiqlari bir-biriga ulanib borar, “Ota Beyit”da mangu qo‘nim topgan adib esa yelkalarini Olatog‘ga tirab, qirg‘iz diyorining oq sallali purviqor cho‘qqilarini qulashdan saqlab yotardi...

Ahmadjon MELIBOYEV

2025-yil 19-dekabr
№ 51 (103)

AZALIY VA ABADIY DO‘STLIK

IKKI XALQNING ARDOQLI FARZANDI



Alloh yo‘lida olamni va odamni sevish, olam va odamga aloqador barcha tuyg‘ularni qadrlash, ularga samimiy va abadiy muhabbat bog‘lash hamda umr bo‘yi shu e’tiqodga sodiq qolish oson emas. Serqirra iste’dod sohibi Akif Azalp vatan, ilm-fan va adabiyot ravnaqi, ozarbayjon – o‘zbek do‘stligi yanada mustahkamlanishi uchun ixlos va sadoqat bilan xizmat qilayotgan zamondoshlarimizdan biridir.

Akif Azalpning asarlari qalblarni nur kabi munavvar qiladi. Uning “Istiqlolnoma” trilogiyasi (“O‘ndarnoma”, “Zafarnoma”, “Humo”) ozarbayjon she’riyatida bu ulug‘ mavzuda yaratilgan eng go‘zal namunalar qatoridan munosib o‘rin egallagan.

Qorabog‘ iztirobi bilan yozilgan, buyuk g‘alabani madh etgan va mug‘om obrazini gavdalantirgan she’r-u dostonlari (“Turkmanchoy”, “Nuhchixan”, “Kamon”, “Qochqin”, “44:0”) va dramalari (“Malikalar ishqi”, “Jannat guli”) haqida ham xuddi shunday fikrlarni bildirish mumkin.

Ikki xalqning ardoqli farzandi Maqsud Shayxzoda an’analarini munosib davom ettirib kelayotgan Akif Azalpning ilmiy yutuqlari va shoirlik mahorati har ikki mamlakatning ko‘zga ko‘ringan olimlari, mashhur adabiy namoyandalari tomonidan e’tirof etilgan. Uning hayoti va ijodi haqida har ikki mamlakatda hujjatli filmlar suratga olingan, she’rlariga kuylar bastalangan. Badiiy tarjimadagi yuksak mahorati uchun O‘zbekiston, Gruziya va Ozarbayjon yozuvchilarining xalqaro konferensiyasida maxsus diplomga sazovor bo‘lgan (Boku, 2005). Nufuzli adabiy tanlovlarda bir necha bor g‘olib deb topilgan.

* * *

Akif Azalp ijodi haqida gap ketganida, 1982-yilda bitilgan “Turon havosi” she’ri beixtiyor yodga tushadi. Qariyb yarim asrlik tarixga ega she’r qimmati ayni paytda – asrlar davomida shakllangan turkiy dunyo hamjihatligining yangi davrida yanada oshib bormoqda. Undagi ishora va qofiyalar turkiy olamning bebaho obidasi bo‘lmish “Dada Qo‘rqut” kitobining poetik aytim tarzini eslatadi. Shoir qirq misralik poetik matnga turkiy xalqlarning qadimiy va zamonaviy ramziy atributlarini (ot, qal’a, bo‘ri, qizil olma va boshqalarni), shuningdek, ozodlik yo‘lida kurashgan tarixiy siymolar (Alp Er To‘nga, Maday xon) va buyuk ma’rifatparvarlarimiz nomlarini mohirona singdiradi.

Ushbu mavzudagi aksar she’rlari badiiy uslubining o‘ziga xosligi va ohangdorligi bilan ajralib turadi. “O‘ljas Sulaymonov” she’ri bunga yorqin misol bo‘la oladi:

Xuddi bo‘lganidek dillarda doston,
“Qiz qu!” shiddatidek sho‘x taronalar,
Xuddi yangragandek Dashti Qipchoqdan
Olamga jar solib shoh turkonalar!

Nurini sochgandek mumtoz “Az i Ya”,
Yechildi tarixning chigal tuguni.
Endi Sizga boqib ko‘rajak dunyo
Osiyoning qanday buyukligini!

Har bir shoir ijodida bo‘lgani singari, Akif Azalp lirikasida ham ishq-muhabbat mavzusi salmoqqa ega. Bu an’anaviy mavzuda ham shoir, avvalo, uslub betakrorligi va obrazlarning yangiligini namoyon etadi. Shu ma’noda, muallifning ilk tajribalaridan bo‘lgan “Kelsang, o‘zing kelma!” she’ri jiddiy qiziqish uyg‘otadi:

Kelsang, o‘zing kelma!
Menga yoddoshimning yodini keltir,
Yorug‘ nigohingning o‘tini keltir
Hamda dudog‘ingning totini keltir!
...Ular ham sen kabi tushgach ko‘p uzoq,
Tutashmas bo‘ldilar hech kimga hech vaqt,
Kelsalar, sen bilan kelarlar biroq –
Kelsang, o‘zing kelma!..

Shoir mazmun, ham shakl jihatdan bu o‘ziga xoslik hamda yangi poetik ifoda uslubini sevgi mavzusidagi she’rlarida saqlab qololgani tahsinga sazovor. Shu ma’noda, uning “Bir bayotga so‘ngso‘z o‘rnida” she’ri zamonaviy ozarbayjon lirikasining go‘zal namunalaridan:

Bir dali o‘g‘lonning lol nigohidan
Oy yuzida qolgan ul izlar haqqi!
Ko‘kdan mujda olgan bir bokiraning
Ko‘ksiga ekilgan ul so‘zlar haqqi!
Dunyoni yaratgan sevgidir faqat,
Dunyoni yashatsa, u yashatajak!

Sudrala-sudrala bir kom yo‘lida,
Ko‘karib-bo‘zargan ul tizlar haqqi!
Umidning so‘ngidan bir qorong‘iga
Boqa-boqa to‘lgan ul ko‘zlar haqqi!
Dunyoni yashatgan sevgidir faqat,
Dunyoga ne qolsa, undan qolajak!

* * *

Akif Azalpning rang-barang ijodida tarjimonlik faoliyati alohida o‘rin tutadi. Deylik, uning faqat turkiy tillardan tarjimalarining o‘zi to‘rt kitob holida chop etilgan: “O‘zbek xalqi she’riyatidan tanlangan asarlar”, “Qrim-tatar xalqi she’riyatidan tanlangan asarlar”, “Sirojiddin Sayyid. Vaqt haykali”, “Turon havosi”. Ozarbayjon o‘quvchilari ko‘plab o‘zbek shoirlarining ijodi, shuningdek, uyg‘ur, turkman, tatar, xakas, qrim-tatar, shor xalq qo‘shiqlari namunalari bilan Akif Azalpning go‘zal tarjimalari orqali tanishgan.

Qahramonimiz faoliyatining ikkinchi qanoti – sermahsul ilmiy faoliyatidir. Ta’kidlash joiz, Akif Azalp “Turkiy tilli she’riyatda tuyuq (janr poetikasi va tarixi)”, “Badiiy ideal va tarixiy haqiqat” kabi yirik tadqiqotlar bilan birga, turkiy xalqlar adabiyotiga oid muammoli maqolalar va salmoqli ilmiy ma’ruzalarning ham muallifidir.

Uning umr yo‘li o‘ziga o‘xshaydi – xoksor va samimiy. Akif Azalp (Akif Zeynal o‘g‘li Bag‘irov) 1954-yil 7-aprelda Ozarbayjonning Shohbuz tumani Nursu qishlog‘ida tug‘ilgan. 1971-yilda maktabni oltin medal bilan tamomlab, Ozarbayjon davlat universiteti (hozirgi Boku davlat universiteti) filologiya fakultetiga kirgan. Matbuotdagi ilk ijod namunalari ham shu yillarda tumanning “Qaboqchil” gazetasida chop etilgan.

1974-yilda a’lochi talaba sifatida davlat yo‘llanmasi bilan Toshkent davlat universiteti (hozirgi O‘zMU)ning o‘zbek filologiyasi fakultetiga yuborilgan. Universitetni imtiyozli diplom bilan tugatgach, 1976–1978-yillarda O‘zbekiston Madaniyat vazirligining San’atshunoslik institutida faoliyat yuritgan. 1979-yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot instituti aspiranturasiga qabul qilingan. 1983-yilda “Turkiy tilli mumtoz she’riyatda tuyuq (janr poetikasi va tarixi)” mavzusida yozilgan dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olgan. 1982-yildan mehnat faoliyati so‘ngigacha shu institutning Adabiyot nazariyasi bo‘limida turli lavozimlarda ishlagan, “Badiiy ideal va tarixiy haqiqat (adabiyot va tarix munosabatlari nazariyasiga doir)” tadqiqoti ustida ilmiy izlanish olib borgan.

Uning she’r va dostonlari, ilmiy tadqiqotlari o‘tgan asrning 70-yillaridan e’tiboran O‘zbekiston va Ozarbayjon ilmiy doiralarida e’tirof etila boshlangan. Xususan, O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov, Ozarbayjon xalq shoiri Fikrat Qo‘ja tomonidan yuksak baholangan.

Biz Shoirimizga ijodiy muvaffaqiyat tilaymiz. So‘ngso‘z o‘rnida O‘zbekiston xalq shoiri Rauf Parfining “Azalp hodisasi” maqolasidan parcha keltirmoqchimiz. So‘z zargaridan o‘tkazib nima ham deyish mumkin: “Akif Azalp – turk dunyosini, Turkistonni, tug‘ishgan So‘zni teran anglagan buyuk shoir. Men faxrlanamanki, Akif Azalp Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy, Husayn Jovid, Abdulhamid Cho‘lpon kabi ulug‘larning muqaddas tilida yozib, o‘z ko‘nglini tarannum etadi”.

Yashar QOSIM,
filologiya fanlari doktori,
professor,
Hulkar HAMROYEVA,
filologiya fanlari doktori,
professor

...Oqib borar oy



Shodmonqul SALOM

Boshlanishi 1-sahifada.

* * *
So‘zning o‘chog‘ida go‘lahlik ishim,
Banda bilan bitmas – og‘ir yumushim.
O‘ng tomonimdan kel, o‘zing ko‘rasan,
Tajriba maydoni mening turmushim.

* * *
Nechun gullamaydi muzlab yotgan ruh,
Nechun shoir dodi manzilga yetmas?
Nechun Vatan deya hayqirgan chog‘i
Mazlum yuraklarning zanglari ketmas?

Qalblarga qamalgan quyoshlar porlab,
Nechun uyg‘onmaydi mudragan kuchlar?
Karga qo‘shiq aytib, tunga tosh otib,
Shamolni qoplagan kabi besamar...

Nechun yuragida bozillagan cho‘g‘,
G‘aribning muzlagan shomin isitmas?
Ey, so‘z! Mumiyocha totimi yo‘q so‘z,
Azador kiyikning yarasi bitmas?

Buning sirin bildim, shu achchiq so‘roq
Yurakni sazoyi qilayotgan on.
Xudo bilan yurak o‘rtasidagi
She’r degan tariqat bo‘lganda talon.

Ana shunda bildim, ey, shamol nasli,
Ey, qadahi to‘lgan, ko‘ngli to‘lmagan.
G‘aladonda turgan shamday umrlar,
So‘zi borgan joyga o‘zi kelmagan...

Rasulga xiyonat qilgan mushrikday,
Duolari qabul bo‘lmas pir kabi.
Tuyqus sezib qoldim Vatan kalomin,
Esnoq-la, sharafsiz aytganda labim...

Ha, gumon qalami sochmagaydir o‘t,
So‘zning ulug‘ kuchi bo‘lmaskan sodir.
Qon to‘kmasdan turib shahid qavmida
Ketish mumkinligin unutsa shoir.

KO‘NGIL
“Kechga... ishdan kelay, maylimi..?”
Eshikni yopasan – ketasan.
“Charchadim. Ishim ko‘p, vaqtim yo‘q...
Tong otsin, maylimi..?” Yotasan...

Qo‘lingda – bozorlik. Yo‘l tirband,
Qor bosib kelasan, etik ho‘l...
Telefon asabiy jiringlar,
“Yo‘ldaman. Borayin... uyda bo‘l...”

...Chigirtka chirillar shom chog‘i,
Yoz qachon keldiykin – o‘ylaysan...
Bir marta, bir marta bo‘lsa ham,
Sen mening holimni so‘rmaysan...
Sen mening ko‘nglimni bilmaysan...

BALOG‘AT
Tirnog‘iga hali bo‘yoq tegmagan,
Inja upalarni totmagan yuzi.
Shirin gilosidan hech kim o‘pmagan,
Hulkarday porlaydi ikki yulduzi.

Hali qay bekatda tushishin bilmas,
Hammani baxtiyor sanaydi.
Hali ko‘zlarining taftida dunyo
Qandday erib turar – sezmaydi...

Nozik kipriklari hijron seliga
Hali bir marta ham duch kelmagan gul.
Hali g‘amli qo‘shiq aytib ko‘rmagan
Chap ko‘ksiga qo‘nib o‘ltirgan bulbul.

O‘nta asov kiyik – o‘nta barmog‘i,
Goho titrab ketar bir zumga...
Nedir ro‘y berishin o‘ylar-u,
Ammo shubha qilmas hech kimdan.

Sochining selida oqib borar oy,
Kunduz mingta tuzoq to‘qib o‘ltirar.
Hali bu sirlardan bexabar, shoyon,
Goho... tushlarida qaltirar.

Hali Xudoyimning uzun arqoni
Nozik qo‘llarini asta bog‘laydi.
Seskanmay, tik qarar ko‘zimga,
Hali ko‘p narsani bilmaydi,
Shu sabab parvo ham qilmaydi.

* * *
Bitta uyda yashasak ham,
Birga qadam tashlasak ham,
Faqat ko‘zlar so‘ylashadi –
– Sirlashmoq yo‘q, dardlashmoq yo‘q.

Bir shaharda yashasak ham,
Bir niyatga ishlasak ham,
Kesishmagan ko‘chalarday
Sirlashmoq yo‘q, dardlashmoq yo‘q.

Bir dunyoda yashasak ham,
Bir xil g‘amni oshasak ham,
Shamol quvgan bulutlarday...
Sirlashmoq yo‘q, dardlashmoq yo‘q.

Himolaydan osholmagan
Qushlar kabi qaylardamiz?
Tushlardamiz, o‘ylardamiz,
Sirlashmoq yo‘q, dardlashmoq yo‘q.

Bir Xudoga banda bo‘lsak,
Hali jonlar tanda bo‘lsa,
Qo‘rquv, umid, sog‘inch bor-u,
Sirlashmoq yo‘q, dardlashmoq yo‘q.

* * *
O‘q teshgan havoning o‘rni to‘ldimi,
So‘nggi xo‘rsiniqdan, og‘ir nafasdan?
Biz tengi hislardan kimdir qoldimi:
So‘nggi qor, atirgul, bir bekat pastda…

Aytgil, yuragingning taqdiridan ayt,
Ul tuyg‘ular holing so‘rayaptimi?
Artgil, ko‘zgudagi ko‘zyoshlarni art,
Tushlaringda muzlar eriyaptimi?

Tunning hisobidan qolgan quvonchlar,
Hanuz sochlaringni tarayaptimi?
Mening yuragimga to‘lgan sevinchlar
Ko‘zguda aksingni ko‘rayaptimi?

Haliyam uyingda deraza bormi,
Yo‘l, uylar, odamlar yurayaptimi?
Tashqarida yomg‘ir, qaysi fasl bu,
Derazangdan Alloh qarayaptimi?

Tongga yaqin tingan yomg‘irdan keyin,
Derazani qalbday ocholasanmi?
Xonangda sevgiday bepoyon havo,
Uni borlig‘ing-la qucholasanmi?

Mening bo‘shlig‘imni to‘ldiroldingmi,
Derazada yomg‘ir, qalbingda qormi?
Bir bekat narida qo‘l silkiyapman,
Dunyoda haliyam atirgul bormi?

SO‘ROV
Rabbim! Bu olamga qancha sir berding,
Kimdan nurni olding, kimga nur berding.
Botqoqqa nilufar qadagan kabi
Noqobil bandangga boylik, zar berding!

Rabbim! Bu jahonga qancha sir berding,
Qadriga yetmasga go‘zal hur berding.
Oppoq qor to‘shida qurtlar yashaydi,
Gunohkor tilimga qancha she’r berding.

Rabbim! Mulk – Seniki. Tog‘-u qir berding,
Qay bir elatlarga buni ko‘p ko‘rding.
Dilga she’r o‘rniga tavba solsang-chi?
Qiynalib ketyapman – kam sabr berding!

* * *
Butunini, sinig‘ini, yorig‘ini,
Yarqirog‘i, yaltirog‘i, chorig‘ini.
Osmonini, zamonini, chistonini,
Sog‘inchini, quvonchini, armonini,
O‘zi aytib bekor qilgan farmonini,
Tilim bilan terib o‘tdim, ko‘nglim aka,
Nima olib, nima berdik, Salim* aka.

Kechalarning hisobidan kunduzlarni,
Tengsizlarning suhbatiga tengsizlarni,
Yuraklari ulug‘ shoir, tilsizlarni,
Qarog‘larda muzlab turgan dengizlarni,
Shu dengizdan zumradlarni, feruzlarni,
Senga atab yurgan edim, singlim, aka,
Hafsalamiz pir bo‘ldimi, Salim aka.

Qadah yanglig‘ to‘lishi bor yuraklar ham,
Bir kun dod deb yuboradi, ko‘kraklar ham,
Tolar ekan, par tutsa-da bilaklar ham,
Kerak bo‘lmay qolar ekan “keraklar” ham,
Bizdan bo‘yi baland ekan teraklar ham,
Shu terakdan uchgan bargdir ko‘nglim, aka,
Kuzga qarab ketyapmizmi, Salim aka.

Huv, qirlarda bir qamish, bir yulg‘un edi,
Ilon bilan chumchuq ini yaqin edi,
Bu qirlar ham otam kabi horg‘in endi,
Sog‘inch ketdi, loshim bunda tolg‘in endi,
Ko‘rgim kelar, chopgim kelar tag‘in endi.
Qavat-qavat uyday baland g‘amim, aka,
Shu uylarda bir o‘zimman, Salim aka.

..._____...
**Shoir Salim Ashur*

* * *
Tegirmontosh ustida ildiz otgan bug‘doyman,
Quyoshni ko‘rmaganman –
bir tola oynurdayman.

Ikki tosh orasidan tortib chiqqan chumoli,
Rangimni sarg‘aytirgan ul jo‘mardning zavoli.

Bir tun oyni eshitdim, tilib o‘tdi tomimni,
Sochin yulib yig‘ladi, kuylab berdi g‘amimni.

Tegirmonchi uyquda, kelmay qolgan xaridor,
To‘xtab qolgan toshlarga
qismatin eslat, Jabbor!

Endi un bo‘lolmasman, eshilib ketsin tarzim,
Arosat fasli o‘tsin – yo‘qdir boshqa hech arzim!

* * *
Tun baribir uzun ekan, yoz bo‘lsa ham,
G‘am baribir og‘ir ekan – oz bo‘lsa ham.
Tovushlaring yuragimga tegib o‘tdi,
Endi yo‘q-da, ovozginang – soz bo‘lsa ham.

Onaginam, yo‘q damlaring bag‘rim tildi,
Yosh boladay uyqum o‘chib, o‘pkam to‘ldi...
Beor dunyo ko‘ksim o‘yib, mendan kuldi,
Bu makkorda sadoqat yo‘q, noz bo‘lsa ham.

Yopgan noning isi keldi saharlarda,
Lek o‘zing yo‘q – qo‘rqib yurdim safarlarda,
Goh daryoday toshganim bor zafarlardan,
Sen yo‘q uchun quvonch totmas – rost bo‘lsa ham.

Bu keng jahon quyosh nurin emib yashar,
Yomg‘irlarning qo‘shig‘iga cho‘mib yashar,
Seni qo‘msab tunlar men-la oy adashar,
Quyosh har tong kelar, sen yo‘q – boz bo‘lsa ham.

O‘say desam, ko‘kragimdan bosib o‘tar,
Yetay degan chog‘im tog‘lar qochib ketar.
Men ortidan chopgan qushlar uchib ketar,
Sen yo‘q uchun, ular ham yo‘q – roz bo‘lsa ham.

Tun baribir uzun ekan, yoz bo‘lsa ham,
Sog‘inch yuki og‘ir bo‘lar – oz bo‘lsa ham.
Ey, voliydam, rozi bo‘lgin g‘aribingdan,
Minnati ko‘p, xizmatlari oz bo‘lsa ham.

SAHNA OLAMI

“NEKI TOPGAN BO‘LSAM, TEATRDA TOPDIM”

O‘zbekiston xalq artisti Rixsi IBROHIMOVA bilan suhbat



– Ayajon, “Shoh Edip” – buyuk Shukur Burhon (Edip) hamda Sora Eshonto‘rayeva (Iokasta) bosh rolda bo‘lgan spektaklda Rimma Ahmedova ikkingiz ham sahnaga chiqqansiz. Yozib olingan tasvirlarni ko‘rib, odamni hayajon bosadi. Buyuklar bilan rol o‘ynash oson bo‘lmagandir, to‘g‘rimi?

– 71 yildan beri sahnadaman – bir inson umri. O‘zi 17 yoshga to‘lar-to‘lmas teatrga kelganman. Institutdagi dars bir tomon bo‘lsa, sahnada ko‘rib, o‘rganganlarim bir tomon bo‘lardi. Odam yoshligi o‘tgan joylarga bir umr bo‘lakcha mehr bilan qarar ekan.

Siz aytgan rol uchun ham raqobat kuchli edi. Lekin ikkalamizni tanlab olishdi. Ana shu buyuklar bilan bir sahnada rol ijro etish eng katta maktab bo‘ldi bizga. Nafaqat “Shoh Edip”, balki sahnadagi har bir yilim, har bir chiqishim yodimda turadi. To‘g‘ri, keyinchalik kinoga tushdim, televideniye va radioda chiqishlar qildim. Lekin teatrda, shoira Halima Xudoyberdiyeva ta’biri bilan aytganda, “eng shoh kunlarimni yashadim”.

Yaxshi-yomon kunlar o‘tdi. Kun o‘tgani mayli-ku, ne-ne ustozlar o‘tib ketdi. Bundoq desangiz, bugun tengdoshlarim ham sanoqli qoldi. Yomon alam qiladigani – shogirdlarning vafoti ekan. Ammo odam ko‘nar ekan, ko‘nikar ekan. Hayot mana shunday yo‘qotish va topish oralig‘ida o‘tarkan.

Yaxshi eslatdingiz, Iokasta cho‘risi rolida edim o‘shanda. Shu maktablardan o‘tgandan keyin bosh rollar ishonib topshirildi bizga. “Mirzo Ulug‘bek”da – Feruza, Gavharshodbegim, “Alisher Navoiy”da – Guli, “Hamlet”, “Qirol Lir”, “Otello”da – Ofeliya, Kardeliya, Emiliya, “Gang daryosining qizi” spektaklida Hemnoli obrazini o‘ynadim. Shuningdek, “Diyonat”, “Dunyoning ishlari”, “Alisher Navoiy” videofilmlari va “Shum bola”, “Olov qo‘ynidagi farishta”, “Kelinlar qo‘zg‘oloni”, “Yuzsiz”, “Kecha va kunduz” badiiy filmlarida turli obrazlarni gavdalantirdim.

Teatrga endi kelgan paytimda Abror Hidoyatov olamdan o‘tgan edi. Men to‘g‘ri Sora opamning qo‘liga borib tushganman. Birinchi ustozim u kishi. Birin-ketin rollarini menga topshira boshladilar o‘shanda: “Endi mening ham ustozim, ham sahnadoshim o‘tdi. Sizni sekin tayyorlab boraman. Agar ba’zi joylari yoqmasa, mening uyimga kelib repetitsiya qilasiz”, degan paytlari bo‘ldi. Shu saboqlar bilan Moskvaga o‘qishga borganman. Ishonsangiz, o‘sha vaqtda markaziy matbuot: “Rixsi Ibrohimova degan o‘zbekistonlik aktrisa kashf etildi, tayyor aktrisa qabul qildik”, deb yozib chiqqan. Bu shov-shuvlar O‘zbekistonda ham aks sado bergan, albatta.

– Buncha shon-shuhrat, ustozlar siylovidan boshingiz aylanib qolmaganmi? Ochiqchasiga aytganda, “yulduzlik kasali”ga chalinganmisiz?

– Ko‘z oldingda ulkan tog‘, purviqor cho‘qqilar turganida, qirga chiqib boshing aylanadimi, ona qizim. Xursand bo‘lganmiz, dugonalarga, teng-to‘shlarga maqtanganmiz. Lekin teatr ostonasidan hatlashimiz bilan balandparvoz xayollardan yerga tushardik.

Tasavvur qiling, atrofingizda dunyoga mashhur san’atkorlar vazmin, sipo yurgan bir vaqtda sizning mashhurligingiz qayerga borardi? Ustozlar oldida hamisha shogird bo‘lib qolamiz. Chunki ulug‘larimiz ana shunday xokisor odamlar edi. Hozirgina sahnada qirol yo malika rolini o‘ynab, yarim soatlab olqish olgan bo‘lsa ham, grimxonadan chiqqach, oddiy odam sifatida gaplashib ketaverardi. Yuksak mukofot olib qaytgan paytlari ham na yurish-turishi, na gap-so‘zida kibrni sezmasdik. Ular, avvalo, SHAXS sifatida shakllangan edi.

– Har bir iste’dodning o‘z badali, to‘lovi bor, deyishadi. Rixsi aya qanday badal berdi san’at olamiga qo‘ygan qadami uchun?

– Onam o‘sal yotgan kunlar edi. Menga rol berilgan. Bosh rejissyorimiz Aleksandr Ginzburg. Boradigan holim ham, imkonim ham yo‘q. Katta opam doktor edi. “Bugun ketma, onam tonggacha yetib borishiga ko‘zim yetmayapti”, dedi. Bu yoqda rejissyor qo‘ymayapti. Xat yuborgan: *“Ибрагимова, дорогая. Никто тебя не заменит. Машина за тобой приедет в семь тридцать. После спектакля сразу, без грима, seni uyingga olib borib tashlaydi. Bugun kelmasang bo‘lmaydi, mehmonlar bor”.*

Ilojsiz, bordim. Spektaklning yig‘laydigan joyida-ku, ho‘ngrab-ho‘ngrab yosh to‘kaman. Kuladigan joyini qanday amallaganman, haliyam bilmayman. Grimni yuvishga ham toqat qilmay shifoxonaga qaytib kelganman. Kelsam, hamma onamning boshida o‘tiribdi. Meni ko‘p so‘rabdi, nedir demoqchi bo‘lgan ekan. Men kelganda o‘zida emasdi. Nafas olishlari har xil. “Onasi, onasi, qizing keldi, Ruxsor keldi, Ruxsor keldi”, dedi dadam. Onaginamning ko‘zlari katta-katta bo‘lib ochildi. “Voy, oyim ko‘zlarini ochdi”, dedim. Menga tikilib qaradi-yu, shu lahza birdan ko‘zi yumildi… Mening aktrisalikka to‘lagan eng katta badalim – onamning so‘nggi so‘zlarini eshita olmadim, mehribonimning dardi ichida ketdi. O‘sha soatlarni eslasam, mana to‘qsonga kiryapman, haliyam muzlab ketaman.

Sahnada ona o‘layotganda dod-voy qilar ekanmiz-u, hayotda ichga oqdi yoshlarim. Ko‘rgansiz, aktrisalar onaning o‘ligini siltalab, u yog‘iga uradi, bu yog‘iga uradi, “Turing, ko‘zingizni oching!” deydi. O‘zingizning onangizni shunday qilib ko‘ring-chi?! Onani urib bo‘ladimi, qizim? O‘sha holat ifodasini faqat Abdulla Oripovdan topdim:

Birovlar motamida oh-u
faryod aylagan erdim,
Sening-chun, ey, g‘aribim,
ich-ichimdan bo‘zlagaydurman.

– Odatda, yoshi ulug‘lar yoshlardan noliydi. Bu holat sizga ham tanishmi?

– Joyi kelsa pand-nasihat berish, xatosini ko‘rsatish, kamini to‘ldirish kattalarning burchi. Bu faqat ezmalikka o‘tib ketishi kerak emas, jo‘yali fikr aytib, to‘g‘ri yo‘lga solib yuborish kerak. Masalan, yoshlardan ko‘nglim to‘ladigan o‘rinlar ko‘p. O‘zbek Milliy akademik drama teatri bosh rejissyori Asqar Xolmo‘minovni bilsangiz kerak. Shu yigitning ijodi menga juda ma’qul tushyapti. Ustoz ko‘rgan – Olimjon Salimovning shogirdi. Qator yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Aql yoshda emas, boshda, deb bekorga aytmagan.

Davlatimiz rahbari bugun yoshlarga ishonyapti. Demak, biz ham ularga ishonamiz. Doim ularning yonidamiz, maslahatimiz kerakmi, ijromizmi, qo‘llab-quvvatlaymiz.

Jadid bobolarimiz ham teatr kelajagini yosh yigit-qizlarda ko‘rgan. Butun o‘lka bo‘ylab iste’dodli yoshlarni yig‘ib, ta’lim-tarbiya bergan. O‘zbek teatrining zamini jadid dramaturgiyasidir.

– Har bir rol farzandday aziz, deydi san’atkorlar. Lekin, baribir, ijodkorning yuragiga yaqin ijrolari bo‘ladi.

– To‘g‘ri aytilgan gap. Har bir rol – xoh katta, xoh kichik bo‘lsin, aktyor hayotining bir parchasiga aylanadi. Bitta pyesani bir umr ijro etganlar bor. Odamlar sizni shaxsiyatingiz bilan emas, rolingiz bilan eslab qoladi.

Men uchun eng sevimli rollarim ustozlarim bilan birga o‘ynaganlarim. Masalan, “Alisher Navoiy” asaridagi Guli obrazi. “Mirzo Ulug‘bek”da Shukur akam bilan birga o‘ynaganmiz.

– Teatr va kinoda sanoqli aktrisalarga millat onasi obrazini shakllantirish baxti nasib etgan. Ularning ijrosi xalqqa shu qadar singib ketganki, ko‘rganda beixtiyor “aya”, “ona”, “oyi” deb yuboradi kishi. Siz ham ana shunday onalardan birisiz.

– Siz aytgan onalar qanday ulug‘ siymolar bo‘lgan ekan, deyman bugun ortga nazar solib. Menimcha, bu obraz Lutfixonim Sarimsoqovadan boshlandi. U kishi “Sen yetim emassan”da Fotima, “Mahallada duv-duv gap”da Mehrixon rollarini qiyomiga yetkazdi. Undan avval Ikkinchi Jahon urushi davrida suratga olingan hujjatli filmlarda ona obrazida ko‘rindi va chehrasi xalq diliga muhrlanib qoldi. Keyingi davrda Zaynab Sadriyeva (Farmon Yosh rejissyor atrofiga yosh va yangi talantlarni yig‘adi. Bizga o‘xshagan keksalar yangi avlodni to‘g‘ri tushunishi kerak, yo‘l berishi kerak ularning g‘oya va takliflariga. Ba’zilar o‘zi ham bir paytlar yosh bo‘lganini unutib qo‘yadi. Agar o‘z vaqtida ustozlarimiz o‘zini chetga tortib, bizni yuzaga chiqarmaganlarida soyada qolib ketardik. O‘sha yaxshiliklarni endi shogirdlarga qaytarish fursati yetdi.

bibi, Anzirat buvi), Maryam Yoqubova (O‘zbek oyim) yaratgan obrazlar ham ona siymosini yangi bosqichga olib chiqdi.

O‘zimni ularga tenglashtira olmayman. To‘g‘ri, “Dunyoning ishlari” videofilmida, “Shum bola”da Ona rolini o‘ynadim. Agar xalqqa ma’qul kelgan bo‘lsa, xursandmiz.

Millat onasi obrazi degani – bu, juda ulug‘ rutba. Menga millat ayoli obrazi haqida gapirish osonroq. Bu borada Yayra Sa’dullayeva, To‘ti Yusupova, Dilbar Ikromova ijrolariga tan bermay ilojingiz yo‘q. Boshqalarni kamsitmayman, lekin Ona, Ayol rolini ijro etgan odamning insoniy fazilatlari ham yuksak bo‘lishi kerak hayotda. Chunki san’atkorning san’atidan ko‘ra hayoti, undagi ikir-chikirlar ko‘p gapiriladi. Ana shu tomonini o‘ylash kerak. Muxlislar muhabbati, obro‘ topish yuz mashaqqat bo‘lsa, uni saqlab qolish ming mashaqqat, aylanay qizim.

– Bu borada yana bir jihat: uzoq yillar “Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi” ko‘rsatuvida qatnashganingiz bo‘lsa kerak. Bugun telenovella deb saviyasi haminqadar kartinalar ham tomoshabinga taqdim etilyapti.

– Bugungi bozori chaqqon, ammo tezda yonib-o‘chadigan teleseriallarni ko‘rib, yoqa ushlayman. Rosti, ularni ko‘ra turib, ayniqsa, “aktrisa” deb nisbat berilayotganlarning suratlariga boqib, dahshatga tushaman. Yarim yalang‘och holida xalqning huzuriga chiqayotganlar bor. Qo‘rqib ketaman. Chunki ochiq behayolik, haddan ortiq bo‘yoqlarga belanish, hayosiz harakatlar, betiyiq noz-ishvalar, ayniqsa, bir dumalab rejissyor bo‘lib olgan noinsoflarning bir hafta yoki oyda suratga olib tashlagan maza-matrasiz “film”lari meni qo‘rquvga soladi.

Telekanallarda paydar-pay berilayotgan novellalarni ham qaytadan ko‘rib chiqish kerak. Aksariyati talabga javob bermaydi. Ammo bormi bu ishlar uchun bosh qotirib, “Hoy, bola, qayoqqa ketyapsan?” deydiganlar, kinobuzarlarni tartibga, insofga chorlaydiganlar, biz katta san’atkor bo‘lib, unvonlar olganimizda ham, ustozlarimiz qarshisida yaproqdek titrab, hayiqardik, hayajonlanib turardik.

– Ayajon, Sizga ixlos qo‘ygan xalqimizga onalik dil izhorlarini so‘rasam bo‘ladimi?

– Men neki topgan bo‘lsam, shu teatrda topdim, nima yo‘qotgan bo‘lsam ham – shu yerda yo‘qotdim. Mehnat daftarchamda faqat bitta ish joyi ko‘rsatilgan – O‘zbek Milliy akademik drama teatri! Mening bor-yo‘q boyligim mehri daryo xalqimizning e’tibori, e’tirofi. Ana shu sharafni bir umr avaylab, dog‘ tushirmaslikka harakat qilib yashadim. Sizlarga ham menga berilgan tole nasib etsin!

O‘zbekistonni butun dunyo taniydigan zamon keldi. Yoshlarimiz turli sohalarda ulkan yutuqlarga erishyapti. Prezidentimizning o‘zi ularga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatib berdi va qo‘llab-quvvatlayapti.

Yaxshilik o‘lmasin! Yaxshi asarlar bitilsin! Ustozlardan o‘tadigan shogirdlar bo‘lsin! Odamlar “Ustozidan o‘tib ketibdi, ustoziga rahmat” desin!

Suhbatdosh:
Zarnigor IBROHIMOVA



> **O‘zbeklarda teatr qadimdan mavjud bo‘lib, faqat u “hozirgicha teatru deb atalmay, “tomosha” deb atalgan.**
>
> **G‘ulom ZAFARIY**

ZAMONDOSH

SOG‘LOM AQL

Pedagogika fanlari doktori, professor, I darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni sohibi Tal’at Usmonxo‘jayev respublikamizda jismoniy tarbiya va sportning fidoyi nazariyotchisi, milliy harakatli o‘yinlarimizning faol targ‘ibotchisidir.

U kishi 1932-yilda Toshkent shahrining Beshyog‘och dahasida, ziyolilar oilasida tavallud topgan. Jismoniy tarbiya texnikumini imtiyozli tugatgach, Moskvadagi Markaziy jismoniy tarbiya institutida o‘qigan. Faoliyatini Toshkentda yangi ochilgan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya institutining sport o‘yinlari kafedrasida o‘qituvchi sifatida boshlagan. Hamkasblarining e’tiroficha, mazkur kafedrada o‘qituvchilik faoliyati davomida Tal’at aka ko‘plab xayrli ishlarni amalga oshirgan, hududlarga safar qilib, iqtidorli yoshlarni institutga qabul qilishda jonbozlik ko‘rsatgan, sport sohasida milliy kadrlarni yetishtirishga hissa qo‘shgan.

O‘sha kezlarda aksariyat darslar rus tilida olib borilar, qishloqdan kelgan yoshlar rus tilini yaxshi bilmagani bois, ularda o‘zlashtirish bobida ma’lum qiyinchiliklar yuzaga kelardi. Shunda yosh o‘qituvchi Tal’at Usmonxo‘jayev basketbol va harakatli o‘yinlarga oid ma’ruza va qo‘llanmalarni tarjima qilib, darslarni o‘zbek tilida o‘ta boshlaydi. Turgan gapki, uning bu xatti-harakati kafedra va institut rahbariyatiga yoqmaydi, uni katta majlislarda tanqid qilishadi. Ularning fikricha, sport atamalari tarjima qilinmas emish. Shundan so‘ng, o‘zbek tilining fidoyisi bo‘lgan pedagog institutdan ketishga majbur bo‘ladi.

Bolalar jismoniy tarbiyasi, ularning salomatligini muhofaza qilish, yosh fiziologiyasi, maktab gigiyenasi, va ayniqsa, milliy harakatli o‘yinlar yosh olimning tadqiqot obyektiga aylandi. Izlanishlar natijasi sifatida birinchi kitobi – “Harakatli o‘yinlar” dunyo yuzini ko‘rdi. Tadqiqotchimiz faoliyati davomida sportni milliy qadriyatlarimiz bilan bog‘lashga xarakat qilib, “O‘zbekcha uqalash (massaj)ning sportchilar faoliyatiga ta’siri” degan mavzuda ilmiy izlanishlar olib bordi. Tadqiqotlar natijasida sharqona uqalash kishi tanasi va ruhiyatidagi charchoqni yo‘qotish, vaznni kamaytirishning muhim omili ekani xaqida ilmiy xulosaga keldi. Ammo afsuslar bo‘lsinki, yosh olimga o‘z tadqiqotlarini tugallash nasib etmadi, to‘g‘rirog‘i, bunga imkon berilmadi. Katta yig‘inlarning birida uni yana tanqid qilishdi. Mustabid tuzum davrida jismoniy madaniyat va sportni ilmiy tadqiq qilish shart emas, faqat ko‘rsatkichlar bo‘lsa bas, degan tushuncha hamda qarashlar mavjud bo‘lib, hatto “Jismoniy tarbiyadan ham ilmiy ish qilib, fan nomzodi bo‘lish shartmi?” degan g‘ayriilmiy bahslar o‘rtaga tashlangan edi.

Shuni ham qayd etish lozimki, ana shunday chalkash, noilmiy bahslarning paydo bo‘lishiga ayrim olim va mutaxassislarning jismoniy madaniyat va sportning ahamiyatini to‘g‘ri tushunib yetmasliklari sabab edi. Biroq xalqimizda “Haqiqat egiladi, bukiladi, ammo sinmaydi” degan ajoyib naql bor. Respublikamiz mustaqillikka erishgach, barcha sohalarda bo‘lgani kabi, jismoniy tarbiya va sport sohasida ham ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, natijalarni amaliyotga tadbiq etish bo‘yicha keng imkoniyatlar yuzaga keldi. Ushbu masalalar bilan shug‘ullanish O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti va unda faoliyat ko‘rsatib kelayotgan Ixtisoslashtirilgan ilmiy kengash zimmasiga tushdi. Tal’at Usmonxo‘jayev ana shu Ilmiy kengashning faol a’zosi sifatida, sohada yetuk olimlarning yetishib chiqishiga nazariy va amaliy yordam ko‘rsatmoqda.

Tal’at Usmonxo‘jayev jismoniy tarbiya va sport, milliy sport turlarining nazariy va amaliy jihatlari bilan shug‘ullanish asnosida sohalar bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlarni olib borishga mo‘ljallangan bir nechta ilmiy-uslubiy laboratoriyalarni tashkil etib, ularni boshqardi. Jumladan, poytaxtimizdagi Mitrofanov nomidagi suv havzasi qoshida kichik laboratoriya tashkil etdi, yosh sportchi-suzuvchilarning muskul-ish faoliyatining mashg‘ulotdan oldingi va keyingi holatini tadqiq qilib, sezilarli natijalarni qo‘lga kiritdi.





Yuqorida qayd etib o‘tganimiz majlisda nosamimiy tanqidga uchragan bo‘lajak olim ilmiy izlanishlarini chetga surib qo‘ymasdan, bilimi, zehni va irodasini ishga solib, 1968-yili Moskva Tibbiyot fanlar akademiyasining Pediatriya institutida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan edi. Shundan so‘ng, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining maxsus Ixtisoslashtirilgan ilmiy kengashida “Bolalarni harakat faolliklari bilan bog‘liq tarzda jismoniy kamolotga yetkazishning ilmiy-pedagogik asoslari” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Bu voqeaga ham shu kunlarda 30 yil to‘ldi.

Bugun to‘qson yoshdan oshgan ustoz qariyb 70 yillik ilmiy-pedagogik faoliyati davomida yigirmadan ortiq fan nomzodi va fan doktoriga ilmiy rahbarlik qildi, bir qator monografiya, darslik, o‘quv qo‘llanma, tavsiyanomalar yaratdi. Milliy harakatli o‘yinlar va sport turlarini tiklash, ular asosida yoshlarimizda vatanparvarlik, milliy g‘urur, qad-riyatga esh intizom, halollik kabi fazilatlarni kamol toptirishga mo‘ljallangan qo‘llanma, tavsiyanomalarga hammualliflik qildi.

Ustoz qalamiga mansub “Maktabgacha ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya”, umumta’lim maktablarining 5–11-sinflari uchun yetti tilda “Jismoniy tarbiya” o‘quv qo‘llanmalari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar uchun darsliklar, ixtisoslashgan kollejlar uchun “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati” kabi ko‘plab risolalar nashr etildi.

Tal’at Usmonxo‘jayev yurtimizda milliy harakatli o‘yinlar, ularga oid sport anjumanlari, festivallarni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz o‘rtasida ommalashtirishda ham fidoyilik ko‘rsatmoqda. Festivalga aylanib ketgan “Alpomish o‘yinlari” shular jumlasidandir. Shuningdek, ustoz “Cho‘pon”, “Bo‘ron”, “Chillak”, “Otib qochar” kabi tarixiy harakatli o‘yinlarni tiklash borasida ham jonbozlik ko‘rsatib kelmoqda. Shunisi qiziqki, ustoz “bo‘ron” va “chillak” o‘yinlarini tahlil qilish va taqqoslash orqali, ularning “regbi” va “golf” singari AQSH sport turlariga o‘xshashligini aniqlagan.

Har bir xalq, har bir millat, albatta, farzandlari sog‘lom va jismonan yetuk bo‘lishi haqida qayg‘uradi. Shu yo‘lda fidoyilik bilan mehnat qilib kelayotgan ibratli zamondoshimiz Tal’at Usmonxo‘jayevga sihat-salomatlik, ezgu ishlarida muvaffaqiyatlar tilaymiz.

G‘ayrat SHOUMAROV,
akademik

Boshlanishi 1-sahifada.

“MILLATGA XIZMAT ILMSIZ BO‘LMAS...”

Safardan so‘ng Behbudiy Bog‘-chasaroyda Ismoil G‘asprali tomonidan nashr etiladigan “Tarjumon” gazetasiga obuna bo‘ladi. Turli ilmiy va siyosiy adabiyotlarni mutolaa qilishni boshlaydi. Qisqa fursat ichida jahon siyosiy jarayonlari, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy tendensiyalardan xabardor bo‘ladi. Jadid harakatining asosiy tamoyillari bilan yaqindan tanishib, ularni Turkiston sharoitida tatbiq etishga intiladi. Uning haj safari taassurotlari va dunyoqarashidagi o‘zgarishlar keyinchalik o‘lkamizda ma’rifiy islohotchilik harakatining g‘oyaviy va amaliy asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Behbudiyning asosiy maqsadi Turkiston aholisining og‘ir turmushini isloh etish, xalqni taraqqiyot va ma’rifat yo‘liga olib chiqish edi. Atoqli adib Sadriddin Ayniy xotiralarida yozilishicha: “1901-yillarda, umuman Turkiston, bilxossa, Samarqand butun dunyodan xabarsiz qorong‘u bir zindon kabi edi. Xalq nodon, ulamo mutaassib, hukumat nihoyat darajada g‘addor va zolim, maishati buzuq, axloqi fasod ... edi”. Behbudiy mana shunday murakkab vaziyatda qolgan o‘lkaning najot yo‘lini ta’limda ko‘radi.

Afsuski, uning ta’lim islohotlari hamda maktablar uchun yozgan darslik va o‘quv qo‘llanmalari jamiyatning muayyan qatlamlari tomonidan tanqid va qarshilik bilan kutib olinadi. Ayrim mutaassib doiralar “Muxtasar jug‘rofiyai umumiy” nomli geografiya darsligida bayon etilgan Yerning Quyosh atrofida aylanishi va shakli dumaloq ekani haqidagi ilmiy ma’lumotlarni e’tiqodga zid deb baholab, muallifni kofirlikda ayblaydi. Behbudiy bu kabi ayblovlarni vazminlik bilan qabul qilar va “munday din va dunyodan xabarsiz kishilardan yaxshi so‘zlar-da kutmak abasdur”, “munday takfirlarni yolg‘uz men ko‘rgan emas, balki o‘tgan ulamo va ulug‘ kishilar ham o‘z muosirlarindan shunday hujum va takfirlarni ko‘rib ketganlar”, deya o‘ziga tasalli beradi.

“Favqulodda takfir” va “Bizning hollar va ishlar” maqolalarida Behbudiy Turkiston aholisi orasida jadid maktablari va rus tilini o‘rganishga nisbatan ehtiyotkorlikning sabablarini tahlil qilib, bu holatni musulmonlikdan chiqib qolish xavfi bilan bog‘liq diniy qo‘rquvning natijasi sifatida talqin etadi. U xalqni madaniy taraqqiyotga undaydi va bilim orqali islohotga chaqirib, “Bu zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, hatto, dini islom va millatga xidmat ilmsiz bo‘lmaydur”, deya ta’kidlaydi.

Behbudiyning jurnalistik merosida qiyosiy-tahliliy uslub markaziy o‘rin egallaydi. U Rossiya, Turkiya, Misr kabi mamlakatlarga safarlari chog‘ida guvoh bo‘lgan ilmiy-madaniy



taraqqiyotni Turkistondagi hayot bilan muqoyasalab, jamiyatni isloh etish va yangilash zaruratini ilmiy tahlil qiladi. “Avvalgi musulmonlarda madaniyat” maqolasida esa buyuk o‘tmishimizni yodga olish orqali mavjud inqirozdan chiqishga qaratilgan g‘oyaviy intilishini namoyon etadi.

Behbudiyning fikricha, mamlakatlarning siyosiy va madaniy qudrati ularda maktab va ma’rifat ishlariga berilgan e’tibor darajasi bilan bevosita bog‘liqdir. *“Makotib taraqqiyning boshlang‘ichi, madaniyat va saodatning durdonasidur. Har millat eng avval makotibi ibtidoiyasini zamoncha isloh etub, ko‘payturmaguncha taraqqiy yo‘lig‘a kirub madaniyatdan foydalanmas. Madaniyati hoziradan mahrum qolub, sanoye’ va maorif silohi ila qurollanmagan millat esa dunyoda rohat va saodat yuzini ko‘rolmaydi”,* deydi u.

Ayni paytda, Turkiston ahlining bu boradagi loqaydligidan kuyunib, vatandoshlarini maktab ishiga e’tiborli bo‘lish va boshlang‘ich maktablarni ko‘paytirishga chaqiradi: “Tahsili maorifni ibtidoiy qismi muntazam maktablar bo‘lgani uchun endi biz, Turkiston musulmonlarig‘a ibtidoiy maktablarni ko‘paytirmoq lozimdur”.

Chor Rossiyasi o‘lkada ta’sis etgan davlat nazoratidagi boshlang‘ich maktablarning ta’lim tizimi hamda rus, arman, yahudiy kabi millatlarga mansub o‘quvchilarning maktabga majburiy qamrab olinganini havas bilan qayd etar ekan, ayni vaqtda turkistonlik shu yoshdagi tengqurlarining ish qidirib korxona va qadoqxonalarda sarson yurgani, 20 tiyindan 1 so‘mgacha maosh uchun kuniga 12 soatlab og‘ir mehnat qilayotganini ta’kidlaydi. Jumladan, “Tahsil oyi” nomli maqolasida: *“Hamshahar yahud, armani, rus bolalari oppoq kiyinib, qo‘ltuq-qo‘ltuq kitob ila maktablarg‘a ketar ekan, bizning bolalarimiz na uchun kir va yirtiq kiyim, oyoqyalang bir holda eshik-baeshik mehnat axtarur, inson bu holatlarg‘a diqqat ila boqsa, istiqboldan ma’yus o‘lur”, deya iztirob bilan yozadi.*

“Omolimiz yoki murodimiz” nomli maqolada turkistonliklarning tinimsiz mehnat qilib, topgan-tutganini to‘y, ma’raka va maishat uchun sarf etish odati qattiq tanqid qilinadi. Bu pullarni bolalarning zamonaviy ta’lim olishi, davlat maktablari yoxud chet el oliygohlarida o‘qishi uchun sarf etish kerakligini aytib: “To‘y va ma’raka aqchasidan bolalarni hukumat maktablarig‘a berilsun va bu aqchadan talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbulg‘a va Rusiya dorulfunun va dorussanoalarig‘a yuborilib, diniy va dunyoviy va zamoniy odamlar yetishturmoqg‘a sa’y qilinsin”, deya da’vat etadi. Agar xalq o‘z ehtiyojlari uchun zarur mutaxassis-kadrlarni tayyorlamas ekan, o‘zgalar qo‘lida qaram bo‘lishini ta’kidlaydi. “Hatto ikkimiz urushsak, yahudiy va ajnabiy zako‘nchilarg‘a borurmiz, boshimiz og‘risa, ajnabiy do‘xturig‘a borurmiz. Sabab nadurki, o‘zimiz o‘qib, zamoniy odam bo‘lolmaymiz”, deya kuyunadi alloma.

“Samarqand” gazetasining 1913-yil 12-iyul sonida Behbudiyning “Ehtiyoji millat” nomli maqolasi chop etilgan. Unda: “Boshqa millatlarga qaralsa ko‘rilurki, muntazam maktablari bor va avval maktabda diniy ilm ustida dunyoviy ilm va fanlar ham o‘qilur. Chunki dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo‘lur. 50 sana muqaddamgi zamonda, biz turkistonlilar yakka va tanho yashab, boshqalar ila muomala va munosabatimiz yo‘q edi. Endi zamon o‘zgarib, boshqa millatlar ila maxlut bo‘lduk, shari’at va o‘z urfimiz ustiga qonun va Ovrupo odatiga itoat qilmoqqa majburmiz... Xulosa, maktabimiz, do‘konimiz, korxonamiz, madrasamiz va har nimarsamizni zamona islohi lozimdur”, degan muhim fikrlar keltirilgan.

Muallif mazkur gazetaning o‘sha yili 30-iyulda chop etilgan “Millatlar qanday taraqqiy etarlar?” maqolasida mavzuni davom ettirib: “Xulosa, har millatni ulamosi, ahli qalami millat uchun so‘ylar, yozar va xavoiji milliya va zamoniyani o‘z millat mansubasiga bildirarlar. Zamona ag‘niyolari o‘z millatlarini zamoniycha kerakligi yo‘linda oqcha sarf etarlar, masalan, yangi usulda zamonaviy maktablar bino etib, zamoniycha odam tayyorlamoq uchun harakat etarlar”, deb yozadi va yangi usuldagi maktablarni rivojlantirish, ta’lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil qilish, ma’rifat orqali yoshlarni turli nomaqbul ishlar va noto‘g‘ri yo‘llardan asrash jamiyat, millat taraqqiyoti uchun g‘oyat muhimligini ta’kidlaydi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘tmish madaniy merosiga alohida ahamiyat qaratadi. Jumladan, “Oyina” jurnalining 1914-yilgi 38-sonida e’lon qilingan “Turkiston tarixi kerak” nomli maqolasida shunday fikrlarni bildiradi: “Millat tarixini, Turkistonda o‘tgan bobolarimizni ijtimoiy hayoti, qaysi yo‘l bilan taraqqiy etganini va madaniyatini bilish uchun “Turkiston tarixi” bor bo‘lganda, tarixiy xatoliklarni bilib ibrat olgan bo‘lar edik. Bu qiyin masala bo‘lib, bunda yosh muarriximiz muhtaram Ahmad Zakiy Validiy afandidan umid qilmoqdamiz”.

U o‘tmish ajdodlar tarixi, merosi, madaniyati va ma’rifatini o‘rganish milliy o‘zlikni anglash, yoshlar tarbiyasi, millat saviyasini oshirishda muhim omil ekaniga urg‘u beradi. “Moziy istiqbolning tarozisidir” maqolasida ham insonning kamol topishi va jamiyatni boshqarishida o‘tmish merosi, tarix fanining o‘rni beqiyosligini alohida ta’kidlab o‘tadi.

Keng tafakkurli adib “Tarix va jug‘rofiya” maqolasida mutaassib shaxslarning qotib qolgan dunyoqarashi hukmronlik qilgan davrlarda bu fanlar bid’at va gunoh hisoblanganini ta’kidlaydi. Tarix va jug‘rofiyaning muhimligi, bu ikki fanning jadid maktablarida bugun yoki kecha kashf etilmagani, balki jamiyat hayotida qadimdan mavjud bo‘lib kelganini isbotlab beradi. Yangi davr odamlari va yoshlari mana shu fanlarni mukammal o‘rganishlari zarurligini aytadi.

Behbudiy tabiiy va ijtimoiy fanlarni “aqlli ilmlar” deb nomlaydi. Xalqlar, mamlakatlar va islom tarixini bilmay turib, oddiy musulmon fuqarosidan tortib davlat arbobi, ruhoniy va ulamo, olim-u fuzalolargacha ma’rifatli bo‘la olishi aslo mumkin emasligiga ishora qiladi: “Dunyoga ishonmoq uchun, komil va odil bo‘lmoq uchun tarixni o‘qumoq va bilmoq kerak. Podsho-yu vazir, hukumat odamlari va siyosiy kishilar uchun tarix o‘qumoq kerak... Past qolgan va yo taraqqiy qilgan xalqlarni, jahongir bo‘lgan davlat yo nopadid bo‘lgan hukumatlarni bilmoq uchun tarix o‘qumoq kerak”.

Behbudiy yoshlarga zamonaviy ta’lim berish, maktab hamda universitetlarda o‘qitish masalasini umummilliy ma’rifiy harakat darajasiga ko‘tarishga intilib, bu jarayonga jamiyatning faol qatlamlarini jalb etishni maqsad qilgan. Boy tabaqani maktablar tashkil etishga, ulamolarni va’z-nasihat orqali ma’naviy targ‘ibotga, savodli kishilarni yoshlarga ta’lim berishga chaqirgan. Bu borada ibratli faoliyat ko‘rsatayotganlarni e’tirof etib, ularni jamiyat uchun namuna sifatida tilga olgan. Chunonchi, “Millat vazifasi” nomli maqolasida Xiva xoni Muhammad Rahimxonning xalqni ilm-ma’rifatga chorlash haqidagi farmonini ijobiy baholab, uni ma’rifatparvarlik namunasi sifatida olqishlaydi.

“Bas, shu hollarni mulohaza qilub, bir biz, musulmonlar hamma ittifoq birlan nashri ilm va xizmat etmak jumlamizg‘a lozimdir. Har mo‘min bu vazifani ado qilmakda mushtarakdirlar. Hamma birimiz oxira muovanat qilub, kim mol ila, kim hol ila, kim qil-u qol ila, til o‘lsun va jon ila ijtihod qilmoq jumla mo‘minning vazifalari va burchlaridir”, deydi Behbudiy.

Bir so‘z bilan aytganda, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Markaziy Osiyoning ijtimoiy-siyosiy hayotida yuksak o‘rin tutgan atoqli siymolardan biri, ma’rifatimiz, ma’naviyatimiz, ta’lim va tarbiyamiz jonkuyari bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiyning ibratli hayoti va faoliyati xalqimiz tarixining shonli sahifalarini tashkil etadi.

Shahzod ISLOMOV,
Abdumalik TO‘YCHIBOYEV,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktorlari

QUTLUG‘ SANA

“SAODAT” ASRI

Bir asrlik yoshga yetgan gazeta va jurnallar dunyo ommaviy axborot vositalari tarixida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, bugungi tezkor zamonda biror nashrning yuz yillik tarixga ega bo‘lishi – noyob hodisa. Bugun biz mana shunday noyob voqeaga guvohmiz – O‘zbekiston xotin-qizlarining “Saodat” jurnali sharafli yo‘lga chiqqaniga yuz yil to‘ldi.

Mamlakatimiz xotin-qizlari hayotini xolis va yuksak did bilan yoritib kelayotgan “Saodat” jurnali jamoasiga Prezident sovg‘asi – “BYD CHAZOR” avtomobili tantanali ravishda topshirildi.

Ushbu qutlug‘ sana munosabati bilan poytaxtimizdagi “Yoshlar ijod saroyi”da o‘tgan anjumanni O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari – Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi raisi Zulayho Mahkamova ochib berdi.

– Keyingi yillarda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligida oila institutini mustahkamlash, xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ulkan islohotlarning muhim mezoni bo‘lgan “Ma’rifatli jamiyatni ma’rifatli onalar bilan qurish” g‘oyasi “Saodat” jurnalining ham ustuvor g‘oya va strategiyasiga aylandi, – dedi Zulayho Mahkamova o‘z so‘zida. – Bosma nashrlarning yashab qolishi oson bo‘lmagan bugungi globallashuv davrida ham “Saodat” jurnalining faoliyati bardavom bo‘lishi uchun, eng avvalo, davlatimiz rahbari, qolaversa, hukumatimiz tomonidan ko‘plab rag‘bat va imtiyozlar amalga oshirilmoqda. Jurnalni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash, uning yurtimizdagi oilalarga kengroq kirib borishi uchun qator amaliy choralar ko‘rilmoqda. Nashrning bir asrlik yubileyini mana shunday shukuh bilan



nishonlayotganimiz, bugungi tadbirda siz guvoh bo‘ladigan quvonchli lahzalar, jurnalga ko‘rsatilayotgan e’tibor va rag‘batlar ham mamlakatimiz rahbarining xotin-qizlarga hamda “Saodat” jurnaliga bo‘lgan yuksak hurmatining dalilidir.

Tadbirda so‘z olgan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, O‘zbekiston xalq shoiri, senator Sirojiddin Sayyid, Jurnalistlar uyushmasi raisi vazifasini bajaruvchi Xolmurod Salimov ham yangilanayotgan zamon talablariga hamnafas ravishda dadil ildamlayotgan jurnalning muhtasham umri haqida gapirib, nashr tom ma’noda saodat manziliga yetganini e’tirof etdi. “Saodat”da uzoq yillar muharrirlik qilib, ijodiy maktab yaratgan Zulfiyaxonim, Halima Xudoyberdiyeva, Oydin Hojiyeva nomlari ehtirom bilan yodga olindi.

O‘zbekiston xalq shoiri Mahmud Toirning nazmiy tabrigi yig‘ilganlar yuragidagi barcha ezgu tilaklarni ifoda etdi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Tadbirda “Saodat”ning xorijdagi taniqli muxlislari va respublikamizning nufuzli korxonalari rahbarlari ham dil so‘zlarini onlayn ravishda izhor etdilar. El suygan san’atkorlarning musiqiy chiqishlari madaniy-ma’rifiy kechaga o‘zgacha shukuh bag‘ishladi.

Tadbir so‘ngida “Saodat” jurnalining bosh muharriri, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Munavvara Usmonova o‘z hayajonlari va minnatdorligini izhor qildi:

– “Saodat”ning o‘n uchinchi muharriri sifatida men o‘zimni Tojixon Shodiyeva, Sobira Xoldorova, Saodat Shamsiyeva, Fotima Niyozova, Oydin Sobirova, Zulfiya Isroilova, Halima Xudoyberdiyeva, Oydin Hojiyeva va boshqa ustozlarning bosib o‘tgan yo‘li, zalvarli mehnati hamda boy ijodiy merosi oldida qarzdor hisoblayman. Shuningdek, jurnalimizga ko‘p yillardan buyon muassislik qilib kelayotgan Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining nashrni har tomonlama qo‘llab-quvvatlab, jamiyat hayoti uchun muhim bo‘lgan mavzular yoritilishida bizga kamarbasta bo‘layotganini alohida ta’kidlamoqchiman. Millionlab o‘zbek ayollarining ko‘ngliga kirgan “Saodat”imizning hali-hamon o‘qishli va sevimli bo‘lib qolganidan iftixor tuyamiz. Davlatimiz rahbarining ko‘rsatgan e’tibori jamoamizga yangi g‘ayrat va shijoat bag‘ishladi. Ishonamanki, “Saodat” bunday yuksak e’tibordan keyin yana yuz yillar bardavom yashaydi.

Tadbirda Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining jurnal jamoasi bilan hamkorlikda tayyorlagan “Saodat” – ayollar ovozi” kitobi taqdimoti ham bo‘lib o‘tdi. Shuningdek, ijodkor xotin-qizlar “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi. Tahririyatning bir guruh faol xodimlari O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamda Jurnalistlar uyushmasi a’zoligiga qabul qilindi. “Saodat”ning qutlug‘ sanasi katta bayramga aylanib ketdi.

Muhayyo RUSTAMOVA

JAHON AYVONIDA

GRIPPNING YANGI TURI



Gripp mavsumining erta boshlanishi fonida Shimoliy yarimsharda (O‘zbekiston ham kiradi) virusning yangi varianti shiddat bilan tarqalmoqda, vaksinatsiya esa “eng samarali himoya vositasi” bo‘lib qolmoqda. Bu haqda Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotiga tayanib, BMT saytida xabar berildi.

TURKIYAGA QARSHI ITTIFOQ

Gretsiya, Isroil va Kiprning harbiy rahbariyati O‘rta Yer dengizida Turkiyaga qarshi kurashish maqsadida qo‘shma tezkor reaksiya kuchlari brigadasini tashkil etishni ko‘rib chiqmoqda. Bu haqda grek nashri Phlie News xabar berdi.



Ma’lumki, Anqara Kiprning dengiz chegaralarini tan olmaydi va mintaqadagi har qanday infratuzilma Turkiya roziligi bilan amalga oshirilishi kerakligini ta’kidlab keladi. Ma’lum qilinishicha, rejalashtirilayotgan qo‘shma brigada 2500 nafar harbiy xizmatchidan iborat bo‘ladi.

ENG QUDRATLI GES

Xitoy Tibetning chekka hududida, Yarlung Sangpo daryosining burilish nuqtasida dunyodagi eng ulkan gidroenergetika tizimini barpo etmoqda. Qiymati 168 milliard dollarga baholanayotgan ushbu loyiha quvvati bo‘yicha dunyoda tengsiz bo‘lishi kutilmoqda. Bu haqda CNN xabar berdi.



Yangi GES tizimi yiliga taxminan 300 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarishi prognoz qilinmoqda. Bu ko‘rsatkich hozirda dunyodagi eng yirik sanalgan Xitoyning “Uch dara” (Three Gorges) to‘g‘oni quvvatidan uch baravar ko‘pdir.

SOBIQ PREZIDENTLARGA YANGICHA BAHO



AQSH prezidenti Donald Tramp Oq uydagi o‘zidan oldingi rahbarlarning portretlari ostiga ularni haqoratli izohlar va asossiz da’volar bilan masxara qiladigan yangi lavhalar o‘rnatdi. Bu haqda TheNewDaily xabar berdi.


Prezident ko‘plab lavhalarni shaxsan o‘zi yozgan bo‘lib, matnni sinchiklab o‘rganilsa, uning ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlariga o‘xshashliklar, jumladan, keskin iboralar va undov belgilaridan keng foydalanilgani ko‘zga tashlanadi.

Jumladan, Jo Baydenning portreti ostidagi lavhada (aslida, u yerga shunchaki uning imzosi tushirilgan avtoportret o‘rnatilgan), “Uyquchi Jo Bayden shubhasiz, Amerika tarixidagi eng yomon prezident edi” deb yozilgan.

TARIX VA TAQDIR

HISOBOT QURBONI

1930-yillar qatag‘onining qonli tig‘iga duchor bo‘lgan insonlardan biri Abdukarim To‘xtaboyev edi. U 1898-yili Namangan viloyatining G‘alcha qishlog‘ida dehqon oilasida dunyoga keladi. Bolaligidanoq yer haydab, dehqonchilik hadisini olib ulg‘ayadi. Dastlab Namangan shahrida eski usuldagi Abdulahad Maxsum maktabida uch yil tahsil oladi. So‘ngra To‘raqo‘rg‘ondagi rus maktabida besh yil o‘qiydi. Navbatdagi bosqichda Namangan gimnaziyasida bir yil ta’lim oladi.



O‘sha yillarda Namanganda savdo-sotiq, qishloq xo‘jaligi, maorif sohalari kengayayotgan palla edi. Abdukarim ham bolsheviklar partiyasiga qabul qilinib, jamiyat ishlarida faolroq bo‘lishga intiladi. 1924-yildan Namangan tumani qishloq uyushmasi tizimida ishlay boshlaydi. Ammo ko‘p o‘tmay siyosiy muhit keskinlashib, manzaralar boshqacha tus oladi. Kechagina ishonch bildirilgan kadrlarga nisbatan shubha, gumon va ta’qiblar kuchayadi. Umumiy siyosiy tortishuvlar, asossiz ayblovlar ta’sirida Abdukarim To‘xtaboyev ham partiya safidan chetlatiladi.

1930-yillar o‘rtalariga kelib, Namanganda paxtachilik qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlaridan biriga aylangan, bu sohaga malakali kadrlarni jalb etishga alohida e’tibor qaratilgan edi. Ana shu jarayonda Abdukarim To‘xtaboyev ham paxtachilik sohasida tajribali mutaxassis bo‘lish uchun turli o‘quv kurslarida malakasini oshiradi, paxta tayyorlash, hisob-kitob, tashkiliy ishlar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. Namangan viloyatining Kosonsoy, Uychi kabi tumanlari va boshqa hududlarga yuborilib, paxta tayyorlash ishlariga rahbarlik qilish, joylardagi tashkiliy ishlarni muvofiqlashtirish bilan shug‘ullanadi.

Bu davr mamlakat bo‘ylab qatag‘on siyosati avj olgan, inson taqdiri bir zumda hal bo‘lib ketadigan dahshatli yillarga to‘g‘ri kelgan edi. Abdukarim To‘xtaboyev ham shu zulmatli davrning navbatdagi qurboniga aylanadi. 1937-yil 14-oktyabr kuni u Namangan viloyati Uychi tumaniga qarashli Yakkatoy qishlog‘idagi paxta tayyorlash punktida xizmat vazifasini bajarayotgan paytda kutilmaganda hibsga olinadi. Uni qanday ayb va kimning ko‘rsatmasi bilan olib ketishgani haqida na o‘ziga, na oila a’zolariga hech qanday izoh berilmaydi. O‘shandan boshlab Abdukarim To‘xtaboyev uchun ham, uning oilasi uchun ham og‘ir sinovlar boshlanadi.

Xo‘sh, aslida uning aybi nima edi?

Ichki ishlar xalq komissarligi huzuridagi “Uchlik” bayonnomalarida Abdukarim To‘xtaboyev haqida “sobiq quloq”, “jadidlar harakati ishtirokchisi”, “Milliy ittihod”ning a’zosi”, “bosmachilar bilan aloqada bo‘lgan shaxs” kabi turli ayblovlar qayd etilgan. Tabiiyki, tergov jarayonlari tahdid-u bosimlar ostida olib boriladi. Uning “ayb”i asosan ziyolilar haqida shaxsiy fikrlar bildirgani, ba’zan Cho‘lpon, Fayzulla Xo‘jayev kabi insonlarning nomini tilga olgani, uyida “O‘tkan kunlar” romanini saqlagani edi.

Shu o‘rinda, o‘sha davr manzarasini yanada to‘liqroq tasavvur qilish uchun adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinovdan yaxlit holat chizgilarini keltirib o‘tsak: *“Jazo organlari mahalliy xalqqa qarshi kurashda turli yo‘llardan keng foydalangan. Jumladan, ular qamoqqa olinganlarni jismoniy qiynoqlarga duchor qilish bilan birga ruhiy ezish, irodasini sindirish, insoniy g‘ururini kamsitish, izzat-nafsini tahqirlash yo‘lidan ham borgan. Bu maqsadlari yo‘lida hech narsadan qaytgan emaslar. Masalan, atoqli olim va adib Fitratni qamoqqa olishdan avval uning uyida tintuv o‘tkaziladi. Xo‘sh, tergovchilar uning uyidan Fitratning “jinoyat”iga aloqador nimalarni olib ketgan? Ayollarning shohi kostyumi, sherst yubka, erkaklarning jigarrang paltosi, to‘rtta qavilgan ko‘rpa, ikkita palos, bitta gilam, soat, javon, kerosin bilan yondiriladigan samovar, yumshoq stullar, bitta yozuv stoli, ikkita sandiq, patefon, musiqa asboblari, shaxmat, har xil likopchalar, laganlar, 13 ta pichoq, 16 ta sanchqi, 8 ta temir qoshiq, 22 ta yog‘och qoshiq, 82 ta har xil kitob va boshqalar. Bu buyumlarning “jinoyat ishi”ga nima daxli borligini ming o‘ylasangiz ham topa olmaysiz...”*

1937-yil 16-noyabrda o‘tkazilgan so‘roqda qahramonimiz qayerlarda o‘qigani, kimlar bilan ishlagani haqida bayon qiladi, ammo bu ko‘rsatmalar ham uni qutqara olmaydi. “Uchlik” qarori bilan Abdukarim To‘xtaboyev 10 yil muddatga mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilinadi. Bu qaror uning ishtirokisiz, sud va himoya huquqisiz chiqarilgan, uning taqdiri bir necha daqiqalarda hal qilingan-qo‘ygan.

Abdukarim To‘xtaboyevning qamoqqa olinishi oqibatida mehnat qilish qobiliyatiga ega bo‘lmagan 8 kishi – ayoli va yetti nafar farzanddan iborat oila qarovsiz, qiyinchilik girdobida qoladi. Farzandlari maktabda o‘qish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi.

Bu yoqda esa lager hayotining azob-uqubatlari Abdukarim To‘xtaboyevni butunlay ezardi. 1941-yil 1-may kuni u Yaroslavl viloyati Ribinsk shahrida joylashgan Volga-Moskva mehnat lageri mahbusi sifatida SSSR Ichki ishlar xalq komissarligiga shikoyat arizasi yo‘llaydi. Unda hibsga olinishi, tergovda ko‘rilgan zulmlar, tahdidlar, majburlab imzo qo‘ydirishlar haqida yozadi va shunday deydi: *“Otamning butun o‘tmishi va mening o‘tmishimdan, ishonamanki, yaxshilikdan tashqari biron narsa topa olmaysiz”.*

Shu tariqa u o‘zining hech qanday jinoyat sodir etmagani, otasi va oilasi butun umr halol mehnat bilan hayot kechirganini iztirob bilan yozadi. O‘shanda qahramonimiz hali 42 yoshda, yolg‘iz o‘zi boqib kelgan yetti nafar yosh farzandi otasiz qolgan... bu esa beshinchi marta yozayotgan arznomasi edi. Shunga qaramay, u nima aybi uchun qamalgani yuzasidan aslo tayinli javob ololmaydi.


Shunday, qatag‘on domiga tortish uchun insonning boy yo yo‘qsil, ziyoli yo ishchi bo‘lishi shart emas edi. Oddiy dehqon oilasidan chiqqan, umrini tirikchilik g‘amida andarmon, halol mehnat, bola-chaqasini boqish fikrida o‘tkazgan odam ham bir zumda “xalq dushmani”ga aylanib qolardi. Sovet qirg‘in mashinasi odam tanlamas, Stalinning maxsus qarori bilan respublikalar rahbarlariga qancha “xalq dushmani” topish va qatl etish rejasi belgilab berilgandiki, Abdukarim To‘xtaboyev ham aybini bilmay ketgan ana shunday ayanchli taqdir egalaridan biri edi.

Oradan yigirma yildan ortiq vaqt o‘tgach, 1958-yilda rasman oqlanib, unga qo‘yilgan barcha ayblovlar asossiz, tuhmat ekani tan olingan bo‘lsa-da, uning qayerda, qachon, qanday sharoitda hayotdan ko‘z yumgani, afsuski, noma’lum.

Abdukarim To‘xtaboyev taqdiri shu holicha yakka bir shaxs fojiasi emas, butun millat boshidan o‘tkazgan sinovlar in’ikosi, o‘rganilishga muhtoj ilmiy-ma’naviy saboqdir. Zotan, bu kabi taqdirlar bizga hurriyat, inson qadri, adolat tushunchalari qanchalar aziz va qimmatli ekanini mudom eslatib turadi.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

XOTIRA AZIZ



QATAG‘ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Sobir Mirzajonov – 1903-yil Namangan shahrida tug‘ilgan. Inqilobgacha oddiy ishchi, hibsga olingunga qadar O‘zbekiston KP(b) Qo‘qon shahar partiya komiteti kotibi sifatida faoliyat yuritgan. 1937-yil 27-sentyabrda NKVD xodimlari tomonidan hibsga olingan. U “Milliy istiqlol” tashkilotiga a’zo bo‘lganlikda va mazkur tashkilotda O‘zbekistonni Sovet Ittifoqidan kuch bilan ajratib olib, uning o‘rnida mustaqil burjua-demokratik davlat barpo etishni maqsad qilganlikda, tashkilotga yangi a’zolarni jalb etganlikda ayblangan.

Tergov hujjatlarida Sobir Mirzajonov tomonidan qo‘zg‘olonchi yacheykalarni tashkil etishda asosiy e’tibor, ayniqsa, sovetlarga qarshi unsur, elementlar ko‘proq to‘plangan va o‘tmishda milliy ozodlik harakati ta’siriga tushgan hududlarga qaratilganligi qayd etilgan. U O‘zSSR Jinoyat kodeksining 58-, 63-, 64- va 67-moddalari bilan ayblanib, 1938-yili 4-oktyabrda otuvga hukm qilingan. Jazo o‘sha kuniyoq ijro etilgan. 1957-yil 1-avgustda reabilitatsiya qilingan.

Amin Abdullayev – 1896-yil Andijonning Asaka shahrida tug‘ilgan. Sobiq VKP(b) a’zosi. Diniy bilim beruvchi o‘qituvchining o‘g‘li. Boku shahridagi musulmonlar yig‘ilishining ishtirokchisi. 1937-yil 31-dekabrda O‘zSSR JKning 66-, 67-moddalari bilan ayblanib, Leninsk shahri, Vodxoz ko‘chasi 11-uydan qamoqqa olingan. “Milliy ittihod”chi hamda Asakadagi “Haqiqat” guruhi a’zosi sifatida yoshlar orasida aksilinqilobiy ishlarni amalga oshirganlikda, yangi a’zolarni jalb qilish bilan shug‘ullanganlikda, hukumatga qarshi mag‘lubiyatchilik mish-mishini tarqatganlikda ayblangan. 1938-yil 13-fevral kuni NKVD qoshidagi “Uchlik” tomonidan 7 safdoshi bilan birga otuvga hukm qilingan va shu kunning o‘zida 75-akt asosida otib tashlangan.

Muhammedjon Abdalov – 1890-yil Urganch shahrida tug‘ilgan. 1921-yili aksilinqilobiy tashkilot a’zosi sifatida 4 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi Xorazm okrugi bo‘limi tomonidan 13388-sonli ish bo‘yicha qamoqqa olingan. “Milliy istiqlol” tashkiloti a’zosi bo‘lganlikda ayblanib, 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 2-sentyabrdan hisoblangan.

Nosir Mamashev – 1887-yil Jizzax shahrida tug‘ilgan. Sobiq politsiya xizmatchisi bo‘lgan. 1918-yili partiyadan o‘chirilgan, “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi bo‘lgan. 1932-yili milliy ozodlik harakatidagi ishtiroki uchun 3 yil qamoqqa hukm qilingan. Hibsga olingan vaqtda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. Aholi orasida kolxozga qarshi targ‘ibot olib borganlikda ayblanib, otuvga hukm etilgan.

Abdulhay Tojiyev – 1899-yil Toshkentda tug‘ilgan. Sakkiz yoshidan boshlang‘ich maktabga kirgan. Uch yillik rus-tuzem maktabi va olti oylik muallimlar kursini, keyinchalik Moskvadagi Kommunistik universitetni tugatgan. Qizil professorlar institutida o‘qigan. U O‘zbekiston Kompartiyasi Toshkent oblast partiya komiteti mas’ul kotibi, O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti targ‘ibot va tashviqot bo‘limi mudiri, “Turkiston” gazetasi muharriri, Butunittifoq sovetlari Markaziy Ijroiya Komiteti Millatlar soveti kotibi va O‘zSSR Sovetlari Markaziy Ijroiya Komiteti raisi o‘rinbosari lavozimlarida ishlagan. U “Ittihod va taraqqiy” tashkilotining Sirdaryo oblast qo‘mitasi a’zosi bo‘lgan. 1937-yil 3-avgustda Toshkentda qamoqqa olingan va Moskvada 1938-yil 27-aprelda bo‘lgan sud qaroriga ko‘ra otib tashlangan. Vafotidan so‘ng oqlangan.

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo‘yicha
falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA,
muzey ilmiy xodimasi

(Davomi kelgusi sonda).

YORUG‘ XOTIRA



JADIDSHUNOSLAR sardori

Dunyo olimlari umumjadid harakati yuzasidan mulohaza yuritadigan, ilmiy tadqiqotlar olib boradigan bo‘lsa, Begali Qosimov nomini, asarlarini aslo chetlab o‘ta olmaydi. U jadid harakatini keng ko‘lamda, butun ta’sirlanuv omillari, yo‘lboshchilari, asosiy g‘oyalari, geografik ko‘lami, mashhur shaxslarigacha tadqiq qilishga ilmiy quvvati yetadigan benazir olim edi.

Begali Qosimov sovet zamonida ilm uchun eng murakkab va qaltis mavzuni – jadidlar davrini tanladi. Buning uchun olimga qat’iyat va jasorat lozim edi. Bu paytda jadidlarning g‘oyalari, orzu-niyatlari haqida bilgan va anglaganlarining barini ochiq yozish ham imkonsiz edi. Domlaning to‘plagan manbalari va ayrim yozgan maqolalari o‘z muhlatini kutdi. Begali Qosimov bu haqda shunday yozadi: “Mening deyarli barcha tadqiqotlarim istiqlol g‘oyasining adabiyotda ifodalanishi yo‘nalishida edi. Shuning uchun ularning aksariyati mustaqillik davrida bosilib chiqdi”. Domla bu davrdagi asarlarni hijjalab tadqiq etdi, ko‘plarini joriy imloga o‘girdi, jadidlarning ruhini shod qilib, tarixiy xizmatlari qadrini baland ko‘tardi.

Begali Qosimov jadid adabiyoti xususiyatlarini tadqiq qilar ekan, albatta, o‘zbek adabiyotiga ta’sir qilgan omillarga to‘xtalib o‘tdi. Haqiqat qiyosda yorqinroq ko‘rinadi. Busiz mumkin emas. Fitratning hayoti va ijodiy merosini Istanbuldagi tahsilidan ajratib qarab bo‘lmaydi. Mahmudxo‘ja Behbudiyni o‘rgana turib, domla, albatta, G‘aspralini, ularning mushtarak g‘oyalari va uchrashuvlarini esga oladi. Ismoil G‘asprali ijodini o‘z vaqtida Begali Qosimovdan ko‘ra teranroq, chuqurroq tadqiq etgan olim yo‘q edi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Olim “Tarjimon” gazetasini batafsil o‘qib chiqdi. Shu mavzuda maqolalar yozdi. Ismoil G‘aspralining “Tanlangan asarlar”ini o‘zbek tilida nashrga tayyorlashda faol ishtirok etdi.

Olimning XX asrning 80-yillarida yozgan maqolalarida o‘zbek-tatar adabiy aloqalarining boy tarixi qamrab olingan. Begali Qosimov Qozon universiteti kutubxonasidan 1527-yili Boburning o‘g‘li Kamronga yozgan maktubini topib, ilmiy muomalaga olib kirgani ma’lum. Kutubxonada XVI asrdan XX asr avvaligacha bo‘lgan davrga oid noyob adabiy qo‘lyozmalar, o‘zbek-tatar folklorini o‘rganishning uyg‘un jihatlariga tegishli manbalar saqlanayotganidan xabar beradi. Qozonda bosmaxona ish boshlagach, o‘zbek-chig‘atoy adabiyotiga oid namunalar nashr etilganini ham olim yozgan asarlardan bilib olish mumkin. Begali Qosimov o‘z asarlarida Shahobiddin Marjoniy, Rizouddin Faxriddin, Abdulla To‘qay, Abdurashid Ibrohim, Aliasqar Kamol, Zohir Begiyev va boshqa tatar ma’rifatparvarlari ijodini o‘zbek adabiyoti bilan qiyoslab o‘rgandi. Tatarlar chiqargan “Sho‘ro”, “Vaqt”, “Ulfat” kabi gazeta va jurnallarni jiddiy tadqiq etdi. “Tatar matbuoti va Turkistonda jadidchilik” nomli maxsus maqola ham yozdi.

Mavzuni birinchi manbalardan batafsil o‘rganib chiqqani uchun Begali Qosimov jadidlar davri adabiyoti to‘g‘risida juda erkin yozadi. Umumjadid adabiyoti ummoniga sho‘ng‘ib, undan noyob dur-u javohirlar teradi va o‘quvchilarga taqdim etadi. Ayni paytda, o‘zi ham jadid ijodkorlarining an’analarini davom ettirib, yo‘l esdaliklari, xotira va kundalik ko‘rinishida asarlar bitadi.

Professor Begali Qosimov Berlin, Olmaota, Qozon, Istanbul, Anqara, Bog‘chasaroyda bo‘lib o‘tgan xalqaro ilmiy anjumanlarda ma’ruzalari bilan qatnashdi. Jadidlar faoliyatiga oid maqolalari Fransiya, AQSH, Turkiya, Qrimda bosildi. “Milliy uyg‘onish” kitobi turk tiliga tarjima qilinib, Anqarada nashr bo‘ldi. Olim faoliyati davomida nemis, turk, qozoq, tatar, rus va boshqa chet ellik hamkasblari bilan ilmiy hamkorlikda ishladi. U yuksak e’tiroflarga sazovor bo‘ldi, jumladan, 1993-yili Yassaviy nomidagi xalqaro mukofot bilan taqdirlandi, 1997-yil Turkiya Otaturk kultur markazi faxriy a’zosi, 1998-yili Turkiya Otaturk Arashtirma tadqiqot markazi muxbir a’zosi bo‘ldi. Uning kitoblariga X.Mennigulov, Ahmad Sevgi, S.Nagayev, J.Zaynullin kabi olimlar iliq munosabatlarini bildirdi.

Istiqlol yillarida Begali Qosimov faoliyatida adabiy aloqalar yo‘nalishida yangi sahifalar ochildi. U o‘zbek-turk adabiy aloqalari bo‘yicha tadqiqotlar olib bordi. Maxsus darslik, qo‘llanmalar yozish, antologiya, ensiklopedik so‘zliklar tuzish ishlariga bosh-qosh bo‘ldi. Domlaning “izlab-izlab topgan” qimmatli adabiy manbalari juda ko‘p ilmiy tadqiqotlar uchun asos bo‘ldi, oliy o‘quv yurtlaridan tortib maktab darsliklarigacha kirib bordi.

O‘zbek adabiyoti qanday qiyinchilik bilan dunyoga yo‘l topayotgan bo‘lsa, o‘zbek adabiyotshunoslarining yozganlari ham dunyo bilan bo‘ylashish uchun yo‘lga osongina chiqayotgani yo‘q. Avvalo, xorijlik tadqiqotchilar, soha mutaxassislari olimning qalamini tanib, bilimini tan olishi lozim. Begali Qosimov iste’dodli adabiyotshunos, o‘zbek adabiyoti va madaniyatining bilimdoni sifatida xalqaro miqyosda e’tirof etilgan olim edi. Deylik, yaqinda amerikalik jadidshunos Adib Xolidning “Turkistonda jadidchilik” kitobi bizda nashr bo‘ldi. Xorijlik bu fidoyi olim o‘z kitobida Begali Qosimov asarlaridan unumli foydalanganiga guvoh bo‘ldim.

Domla O‘zbekistondagi arxiv va noyob fondlarni juda yaxshi bilar edi. Sarg‘aygan gazeta va jurnallarning changini yutib, qoraytirilgan tarixni aql nuri bilan yoritdi, tarixiy shaxslarning millat fidoyilari ekanini dalillar bilan isbotladi. O‘z vaqtida Begali Qosimov Mahmudxo‘ja Behbudiyga nisbatan “karvonboshi” ta’birini qo‘llagan edi. Domlaning o‘zi jadidshunoslik sohasining karvonboshisi, chin ma’noda, jadidshunoslar sardori edi.

Bahodir KARIM,
professor

O‘Y

ODAMLAR NIMA DEYDI?

Ko‘p yillik tajribamdan kelib chiqib aytsam, mana shu savol xalqimiz xatti-harakatlarini belgilashda ustunlik qilar ekan. Bu ustunlik ijobiy ahamiyat kasb etsa-ku, yaxshi. Ko‘chaga chiqindi uloqtirayotganda, pora olishga qo‘l cho‘zayotganda, xayrli ishlarga bosh qo‘shmay turganda, “Odamlar nima deydi?” deya vijdonimiz so‘roqqa tutsa, ayni muddao. Ammo bu savol salbiy oqibatlarga boshlasa-chi?



Farida ABDURAHIMOVA,
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim boshlig‘i, pedagogika fanlari nomzodi, professor

Uyimning tomini qo‘shnimnikidan ko‘tarmasam, bojamdan o‘tkazib to‘y qilmasam, umradan kelib to‘rt qozon osh tarqatmasam, ota-onamning tug‘ilgan kunida artist chaqirib, tun yarmida tabriklamasam, odamlar nima derkin, qabilidagi “o‘y”lar oxir-oqibat ma’naviy va moddiy halokatga yetaklaydi. Ayniqsa, to‘y-ma’rakalardagi dabdababozlik va isrofning negizida ham ana shu savol yotibdi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi va Oliy Majlis Senati Kengashi “To‘y, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” qo‘shma qarorni qabul qilgan. Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi huzuridagi “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti ana shu qaror asosida tadqiqot ishlarini amalga oshirdi. Qani, odamlar nima derkin?

Loyiha uchun huquqshunos, pedagog, sotsiolog, psixolog, etnograf, iqtisodchi va faylasuflardan iborat ekspertlar guruhi tuzildi, jurnalistlar ham jalb etildi. Ular guruhlarga bo‘linib, respublikamizning bir qator hududlarida aholi orasida qator so‘rovnomalar o‘tkazdi, shu asosda jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy, ruhiy, axloqiy holatlarini o‘rgandi. Turmush tarzi, hayotiy munosabatlari, kundalik ehtiyojlari va maqsadlari bilan tanishdi.

Juda qisqa muddatda bir yarim mingdan ortiq respondentlar – 383 nafar mahalla faoli, 326 nafar yosh oila vakili, 395 nafar ota-ona, oila qurish istagidagi 403 nafar yigit-qiz ishtirok etgan sotsiologik tadqiqot natijalariga ega bo‘ldik.

Masalan, “Joylarda to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni o‘tkazishni tartibga soluvchi Jamoatchilik kengashlari faoliyatidan qay darajada xabardorsiz?” degan savolga qoniqarli javob olinmadi. Ishtirokchilar yoshlar kengashi faoliyati haqida ham yetarli ma’lumotga ega emasligi ma’lum bo‘ldi.

Jamoatchilik kengashi haqida respondentlarning 30 foiz: “Doimiy faoliyat yuritadi, marosimlarda dabdababozlik va isrofgarchilikka chek qo‘yilmoqda”, 40 foizi “Sust faoliyat yuritadi, faoliyati deyarli sezilmaydi”, 20 foizi “Umuman faoliyat ko‘rsatmaydi”, qolgan 20 foizi “Bilmayman”, deb javob bergan. Demak, hududlarda ushbu masala bilan shug‘ullanuvchi qator tashkilotlar faoliyati qoniqarli emas. Ana shu holatning o‘zi faoliyatimizga tanqidiy yondashuvni taqozo etadi.

Respondentlarning 40 foizga yaqini Jamoatchilik kengashlari ijtimoiy hayotda zarur ekanini, faqat uning samaradorligini oshirish uchun huquqiy asoslarni yaratish, ya’ni tegishli qonun ishlab chiqish zarurligini bildirdi. Bu, albatta, ijobiy hodisa. Biroq ularning 60 foizga yaqini jamoat tashkilotlariga ishonchi yo‘qligini, jumladan, ushbu kengash ham ulardan biri sifatida aholi ongi va qalbiga kirolmayotganini ochiq-oydin bildirdi.

Bu holat turli jamoat tashkilotlari aholi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri ishlashda yetarli tajribaga ega emasligini ko‘rsatadi. Quruq hisobotlar, raqamlarni bo‘rttirib yozish, tadbirlar sonini ko‘paytirish bilan shug‘ullanmayapmizmi, degan fikr uyg‘onadi beixtiyor. Bitta jamoat tashkiloti mahallada tadbir o‘tkazsa, yonida beshta boshqa tashkilot vakili ham suratga tushadi. Ayting-chi, o‘zimizni o‘zimiz aldamayapmizmi?!

* * *

To‘y, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarning aholi hayotidagi ijtimoiy-ma’naviy ahamiyati hamda o‘zgarishlar tendensiyasi ham sotsiologik tadqiqot davomida o‘rganildi va tadqiq qilindi. Natijada bir quvonchli holatga guvoh bo‘ldik. Nikoh to‘yida dabdaba ustuvor maqsad emasligi, to‘yni sodda va oila davrasida o‘tkazish, moddiy imkoniyatlardan kelib chiqib tashkil etish, axloq doirasidan chiqmaslik kerakligini 64 foiz ishtirokchi qo‘llab-quvvatlagan.

So‘rovnoma qatnashchilaridan 26 foizi ikki tomon kelishuvi bilan ortiqcha xarajatlardan voz kechishni, 22 foizi milliy urf-odatlarga sodiqlik, qadimiy an’ana va qadriyatlarga hurmat ko‘rsatish zarurligini, an’anaviylik bilan zamonaviylik uyg‘unlashishini istagan.

To‘y va boshqa marosimlarni kim-o‘zarga o‘tkazish borasida 28 foiz respondent “bunday salbiy holatlarni tartibga solish o‘zaro kelishuv va bir-birini tushunish asosida hal qilinishi kerak”, degan fikrni bildirdi. 19 foiz yoshlar ortiqcha xarajatlar va uy anjomlari zarur emas, deydi. Qolganlar esa... Demak, bu borada hali qiladigan ishlarimiz ko‘p.

Dabdababozlikka uchish o‘z-o‘zidan qarzni ergashtirib keladi. Isrof ortidan hech zamonda xayr-baraka kelgan emas. Shu ma’noda, qarz yoki kredit olib to‘y qilish masalasi ancha munozarali bo‘ldi. 34 foiz respondent qarz olmaslik, “ko‘rpaga qarab oyoq uzatish” tarafdori. 23 foiz respondent esa bunga mutlaqo qarshi, murosasiz. Bundan ko‘rinib turibdiki, aholining asosiy qismi o‘z ehtiyojiga yarasha, imkoniyati doirasida to‘y o‘tkazish maqsadga muvofiq ekanini aytmoqda. Lekin buni oddiy holat, hatto, zamona urfi deb biladiganlar ham yo‘q emas.



Zamonaviy sharoitda to‘ylarning shakli ham o‘zgarib bormoqda. Jumladan, onlayn to‘ylar, kreativ formatdagi to‘ylar, faqat ayollar bilan o‘tkaziladigan to‘ylar... Balki, bunday to‘ylarga ham zarurat bordir. Lekin tadqiqotda qatnashgan aholining ko‘pchiligi oddiy, mazmunan boy, an’anaviy to‘yni qo‘llab-quvvatlagan. Xususan, oilaviy to‘ylar (50-80 kishilik) eng qulay va ixcham, kamxarajat to‘y ekanini bildirishgan.

* * *

“Turmush qurishda mahr muhimmi?” degan savolga respondentlarning 64 foizi “muhim” deb fikr bildirgan. Bu yerda mahrning miqdori nazarda tutilayotgani ayon. Yoshlar esa aynan mahr qiymati haddan ziyod oshib borayotgani, hatto uch xonali kvartira, qimmat rusumli avtomashina, umra ziyoratiga olib borish kabi talablar ham qo‘yilayotganidan norozi. Natijada, bu holat to‘y boshlanmasidan kuyovning fikri o‘zgarishiga, to‘yning buzilishiga sabab bo‘lmoqda.

Qizlarimizning mahrga ruju qo‘yishi tobora sof tuyg‘ular qadrini tushirib yubormoqda. Vaholanki, mahrdan murod kuyovdan ko‘proq boylik undirib olish emas. Orzular, umidlar, niyatlar pul bilan o‘lchanadimi? Muhabbatning qiymati bormi?

O‘tkazilgan tadqiqot jamiyat ijtimoiy muhiti va kayfiyatini o‘rganish imkonini berdi. Real hayotiy voqelik qandayligini ko‘rsatdi. Endi ana shu tadqiqotlar natijalari asosida tegishli xulosalarga kelishimiz mumkin.

* * *

To‘y-hasham borasida musulmon va turkiy davlatlar tajribasini ham o‘rgandik. Masalan, Misr ommaviy axborot vositalarida “Ortiqcha xarajatsiz baxtli nikoh” shiori ostida ijtimoiy kampaniyalar tashkil etiladi, videoroliklar, maqolalar va tok-shoular orqali aholiga ta’sir o‘tkaziladi. Yoshlarda dabdaba o‘rniga oddiylik, bardosh va ruhiy tayyorgarlik fazilatlarining shakllanishiga harakat qilinadi.

Shuningdek, yoshlarning “Tenglashtirilgan nikoh shartlari” harakati vujudga kelgan. Unda yoshlar madrasa, Yoshlar markazi, madaniyat uylari, maxsus munozara klublarida, qishloqlarda oqsoqollar ishtirokida yig‘ilib, adolatli nikoh shartlarini odatga kiritish bo‘yicha munozara qiladi. Yig‘ilishlarda “Shabka” (bizdagi qalin puliga o‘xshaydi) miqdorini ramziy qilib juda kamaytirish, mebel va texnika bo‘yicha minimal talab, ijara uyga ham rozilik, yangi uy talab qilmaslik, ziyofatlarni faqat oila a’zolari o‘rtasida o‘tkazish, umumiy xarajatlarni qisqartirish kabi masalalarni o‘zaro kelishadi va targ‘ib qiladi.

Yana bir jihati: ilmiy doiralar tomonidan “Nikohdan xabardorlik mashg‘ulotlari” o‘quv dasturi tashkil etilgan. Bunday dastur nafaqat Misrda, balki ko‘plab musulmon mamlakatlari, ayniqsa, Malayziya, Indoneziya, Nigeriya, Turkiya, BAA kabi davlatlarda ham keng qo‘llanadi. Ba’zi davlatlarda nikohga ro‘yxatdan o‘tish uchun trening sertifikati talab etiladi. Ushbu kurslar samarasi sifatida Malayziya, Indoneziya va boshqa qator mamlakatlarda ajralishlar 20-30 foizga kamaygan, oilalarda muloqot va ishonch yaxshilangan, barqarorligi oshgan.

Turkiya ham to‘y xarajatlarini kamaytirish bo‘yicha o‘ziga xos tajribaga ega. Bu borada quyidagi asosiy mexanizmlar joriy etilgan: munitsipal to‘y zallari – arzon va rasmiy; sodda to‘y harakati – ortiqcha dabdabadan voz kechish; davlat grant va subsidiyalari – kreditsiz boshlanish; media va diniy targ‘ibot – ma’naviy yondashuv; kambag‘al oilalar uchun bepul xizmatlar va hokazo.

Turkiyaning har bir tuman va shahar hokimligida “Nikah Salonu” (Nikoh zali) mavjud. Bu zallarda to‘yni bepul yoki minimal to‘lov evaziga o‘tkazish mumkin. Munitsipalitetlar ko‘p bolali oilalar, talabalar va yosh oilalarga imtiyoz beradi. Bu mexanizmning afzalligi shundaki, qimmat to‘yxonalarga ehtiyoj qolmaydi, huquqiy rasmiylashtirish bilan birga, tantanali marosim ham o‘tkaziladi, kam mablag‘li juftliklar uchun osonlik yaratiladi. Bugungi kunda ayrim shaharlarda nikohning 40-50 foizi faqat “Nikah Salonu”da o‘tkaziladi.

* * *

Bugun O‘zbekiston buyuk islohotlar yurtiga aylandi. Jahon siyosiy doiralaridan tortib, Yer sharining turli burchaklarida istiqomat qiluvchi xalqlar ham Vatanimizga katta qiziqish bildirmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan Toshkent, Samarqand, Bo‘zatov va boshqa hududlarda o‘tkazilayotgan xalqaro tadbirlar dunyo nigohini bizga qaratmoqda.

Shunday ekan, endi biz ham “Odamlar nima deydi?” degan tor doiradan chiqib, “Olam nima deydi? Olamda nima gaplar?” degan savolga o‘taylik. Bolalarimizni o‘tkinchi havaslarga chirmab tashlamay, ularni dunyo talab qilib turgan sohalar bo‘yicha o‘qitaylik, zamonaviy kasb-hunarlarni o‘rgataylik.

Yigit-qizlarimiz sport va fan olimpiadalarida g‘olib bo‘lsa, o‘z sohasida yirik natijalar ko‘rsatsa, ana unda ko‘ring, mahallada duv-duv gap bo‘lishini. Shunday emasmi?



> **To‘y foydali bo‘lsa ham, chegaradan o‘tsa, zarardan boshqa narsa bo‘lmaydi.**
>
> **Abdurauf FITRAT**

TAQDIMOT

KINEMATOGRAFIYA AGENTLIGIDA NIMA GAP?



Joriy hafta O‘zbekiston Milliy kino san’ati saroyi gavjum bo‘ldi. Yil yakunida amalga oshirilgan ishlar sarhisob qilindi, ijod mahsullari xalqqa taqdim etildi, ilg‘or kinoijodkorlar mehnati taqdirlandi.

16-dekabr. “Buyuk bobolarim bolaligi” turkumidagi animatsion filmlarning taqdimot marosimi o‘tkazildi.

Tantanali tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi direktori Shuhrat Rizayev, animatsion film ijodkorlari hamda kelajagimiz egalari – bolajonlar ota-onalari bilan ishtirok etdi.

Yosh tomoshabinlarga ushbu turkumdagi ilk o‘nta film – Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg‘ariy, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur hamda Kamoliddin Behzod singari ulug‘ ajdodlarimizning bolaligi xususidagi tarixiy faktlarning badiiy talqini 3D formatda taqdim etildi.

Animatsion filmlar syujeti qiziqarli, yosh tomoshabinni o‘ziga jalb qiladi. Dialoglar tabiiy va jonli. Tarixiy mavzudagi murakkablik epizodlarga mahorat bilan singdirilgan. Xususan, shu vaqtgacha nafaqat bolalar, balki katta yoshli tomoshabinlar uchun ham kontent yaratish ehtiyoji mavjud bo‘lgan Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg‘ariy, Kamoliddin Behzod mavzusiga qo‘l urilgani ayni muddao bo‘lgan.

Ushbu loyihaning e’tiborli jihati bolalarga tariximizning shonli sahifalari, buyuk ajdodlarimiz dahosini tanishtirishgina emas. Daholar



ham bir vaqtlar oddiy bola bo‘lgani, ular tinimsiz o‘qib-o‘rganish, izlanish va mehnat evaziga olamshumul kashfiyot va ixtirolarga qo‘l urgani, benazir asarlar yaratgani ko‘rsatib berilgan. Bu esa har bir bolada yangi istak va intilishlarning paydo bo‘lishiga, qiziqishlarini yo‘naltirishga xizmat qiladi.

“Buyuk bobolarim bolaligi” turkumidagi ijod mahsuliga san’atshunoslar, pedagoglar va boshqa mutaxassislar o‘z bahosini beradi. Lekin haqiqiy baho – bolalarniki bo‘lishi, shubhasiz. Taqdimot jarayonida yosh tomoshabinlar katta qiziqish bilan ekrandan ko‘zini uzmadi. Zalni tark etish yoki zerikish holati kuzatilmadi. Aksincha, qahramonlarning xatti-harakatlarini qizg‘in qo‘llab-quvvatlab turishdi. Ayniqsa, Zahiriddin Muhammad Boburga bag‘ishlangan filmda tomoshabinlar faolligi yanada ko‘proq kuzatildi.

Bugun mamlakatimizda bolalar uchun kontent tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bosh rejissyor Abdulatif Haydarov boshchiligidagi jamoa tayyorlagan animatsion filmlar millionlab muxlislarini topishi va o‘z vazifasini munosib bajarishiga ishonamiz.

* * *

17-dekabr. “Oltin Humo” 2025 milliy kino taqdimot marosimi tantanali ruhda o‘tkazildi.

Mazkur nufuzli tadbir o‘zbek kinematografiyasining bugungi yutuqlari va ijodiy salohiyatini namoyon etib, kino sohasi vakillari, taniqli rejissyorlar, aktyor va aktrisalar, kino mutaxassislari hamda san’at ixlosmandlarini bir maydonga jamladi.

Marosim davomida milliy kino rivojiga munosib hissa qo‘shgan ijodkorlar 18 ta nominatsiya bo‘yicha taqdirlanib, yil davomida yaratilgan eng yaxshi filmlar va ijodiy ishlarga yuksak e’tirof bildirildi.

Xususan, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A’zamga “Eng yaxshi ssenariy” nominatsiyasida “Bahorni quvib” filmidagi yuksak professional ishi uchun “Oltin Humo” 2025 milliy mukofoti topshirildi.

Otabek RAHIM

TILBILIM

Turkiy xalqlarning madaniy hayotida qo‘g‘irchoqlar nafaqat bolalar o‘yinchog‘i sifatida, balki marosimlar va xalq tomoshalarida ham muhim o‘rin tutgan. Qo‘g‘irchoq so‘zi qadimgi yozma manbalardan biri “Devoni lug‘atit turk” asarida *quzurchuq* shaklida berilgan bo‘lib, hozirgi *qo‘g‘irchoq* ma’nosini to‘la aks ettiradi.

QO‘G‘IRCHOQ

Oltoy tillarining etimologik lug‘atida so‘z ildizi *kàkú* so‘zi bilan bog‘lanadi. *Kàkú* “kesilgan, ajratilgan jonzot” ma’nosini bildirgan. Yanada qadimiy ildiz sifatida *káka* fe’li ko‘rsatiladi, u *“sindirmoq, uzmoq, ajratmoq”* ma’nolariga ega. “Ajratmoq” fe’li bilan hozirgi qo‘g‘irchoqning orasida qanday bog‘liqlik bor, dersiz? Qadimda bolalar o‘yinchoqlari ko‘pincha hayvon terisidan, yog‘ochning bo‘lagidan yoki shunga o‘xshash narsalardan yasalgan. Shu sababli ajratilgan bo‘lak o‘yinchoqning moddiy manbasi bo‘lgan. Odamlar mana shu bo‘lakka ishlov berib, qo‘l-oyoq chizib, jonivorga yoki odamga o‘xshatib yasashgan. Shunday qilib, u biror katta narsaning ajratilgan bo‘lagi, kichik nusxasi, ya’ni qo‘g‘irchoqqa aylangan. Bu qadimiy turkiy xalqlar tasavvurida qo‘g‘irchoqning *“jonli mavjudotning kichik, yasama timsoli”* sifatida qabul qilinganini ko‘rsatadi.

Vaqt o‘tishi bilan *kàkú* so‘zi *kagur* yoki *qagur* shaklida rivojlanib, turkiy tillarning aksariyatida fonetik o‘zgarishlarga uchragan. Deyarli barcha turkiy tillarda *k/q* tovushlari almashgan, so‘z *qo‘qir/qo‘qur* kabi shakllarga kirgan. Masalan, o‘zbekcha *qo‘g‘irchoq,* qozoqcha *quwırshaq,* qirg‘izcha *qūrčaq,* tatar tilida *qurçak,* boshqirdchada qursaq, turkmanda *gurjaq,* qoraqalpoq tilida *quwırshaq.*

Qardosh tillardagi fonetik farqlarga qaramay, so‘zning asosiy ma’nosi o‘zgarmagan holda saqlanib qolgan.

Iroda RAHMONALIYEVA,
TDSHU 1-kurs magistranti

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Mas’ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Adadi – 18 731
Shundan:
Kirill yozuvida – 7 101
Lotin yozuvida – 11 630
Media kuzatuvchilar – 74 732
Buyurtma: G – 1240.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:00
Sotuvda narxi erkin.

www.jadid.uz